

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Geografiya kafedrası

Qo`lyozma huquqida

Habibullayeva Nodira

GEOGRAFIYADAN GLOSSARIY TUZISH METODIKASI

5440500- geografiya ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish rahbari: katta o`qituvchi M.Atajonov

Andijon - 2014 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I.Bob. Ta`limda pedagogik texnologiya zamonaviy o`quv adabiyotlarining ahamiyati.....	6
I.1. Pedagogik texnologiya va zamonaviy o`quv adabiyotlarini yaratish tajribalari.....	6
I.2. Glossariy va o`zbek geografik terminshunosligi.....	15
II.Bob. Geografiyadan glossariy tuzishning ayrim masalalari.....	32
II.1.Geografiya ta`limida glossariy tuzish va ulardan foydalanish.....	32
II.2.Tabiiy geografik fanlarga oid glossariy namunalari.....	37
II.3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik fanlarga oid glossariy namunalari.....	41
Xulosa.....	59
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	62

Kirish

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda jahonning turli mintaqalaridagi mamlakatlar bilan keng qamrovli, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnikaviy aloqalar o'rnatishga intilmoqda. Jamiyat hayotida tub islohotlar olib borilayotgan bir sharoitda yangi texnologiyalardan foydalanish sirlarini tez va mukammal o'zlashtira oladigan, zamonaviy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarida samarali mehnat qila oladigan milliy kadrlarga talabning ortib borishi tabiiy hol.

1997 yil 29 avgustda Oliy Majlis tomonidan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi respublika ta'lim tizimini yangi islohotlar bosqichiga ko'tardi. Yoshlarning puxta bilim olishi hamda zamonaviy sohalardan fan asoslarini chuqur egallashlari borasida hukumat tomonidan qator chora tadbirlar belgilandi. Mazkur dastur talablariga ko'ra, ta'lim tarbiya uzviylikda olib borilishi, ularning tizimi hamda samarasini oshirish yo'lida barcha imkoniyatlardan foydalanish nazarda tutiladi [14].

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida oliy ta'lim islohoti xususida shunday fikrlarni ta'kidlagan edi:

"Oliy o'quv yurtini isloh qilayotganda, ularning boshqa davlatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan aloqasini mustahkamlash zarur.

Yetuk saviyali kadrlarni chetga chiqarish bo'yicha maxsus bir fond tashkil etish kerak. Biz shu fond orqali domlarni, O'zbekiston professorlarini chet mamlakatlarga yuborib, malakasini oshirib kelishga imkoniyat yaratishimiz kerak [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur fikri Respublika hukumatining yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashga bo'lgan munosabatini ifoda etadi va o'z o'rnida pedagog kadrlar zimmasiga jahonning rivojlangan davlatlarining ta'lim tizimidagi yutuqlarini chuqur tahlil etish, maqbul jihatlarni ta'lim tizimiga tatbiq qilish, zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarini ishlab chiqarish hamda ularni amaliyotga joriy etish, shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarishning uzviy birligini ta'minlash yo'lida faol va samarali mehnat qilish vazifasini yuklaydi.

Albatta, ta'lim tarbiyaning uzluksizligi nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'liqligi, o'qitish vositalari bilan to'la ta'minlangan, boy kutubxona zahirasining mavjudligi va ustozlarning kasbiy mahorati mamlakat ilmiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim sohasiga glossariylardan samarali foydalanish vazifasi qo'yilmoqda. Mazkur bitiruv malakaviy ish aynan yuqorida aytilgan masalaga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot maqsadi: Geografiya fanidan glossariylar yaratishning ilmiy-nazariy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Geografiya fanidan glossariylar tuzish yuzasidan ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish, tahlil qilish hamda umumlashtirish.
2. Geografiya fanidan glossariylar yaratishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.
3. Geografiya fanidan glossariylar tuzishning amaliy ahamiyatini yoritish.
4. Geografiya fanidan glossariylar tuzishning ba'zi shakllarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish.

Tadqiqot ob'ekti Geografiya fanidan glossariylar tuzish masalalari hisoblanadi. Glossariylar tuzishning ilg'or texnologiyalarini asoslash bitiruv malakaviy ishining premeti xisoblanadi.

Tadqiqot metodlari: qiyosiy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Geografiya fanlaridan yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalar

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida ilgari surilgan fikrlar, yondashuvlardan hamda samaradorligini ta'minlovchi tadqiqot natijalari geografik fanlar bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash, qo'llanmalar yaratish, shuningdek metodik tavsiyanomalar yaratishda, ish tajribalarini ommalashtirishda samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi: ish kirish, 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib, unda 4 ta rasm, 1 ta jadval keltirilgan, umumiy hajmi 63 sahifani tashkil qiladi.

I.Bob. Ta'limda pedagogik texnologiya zamonaviy o'quv adabiyotlarining ahamiyati

I.1. Pedagogik texnologiya va zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish tajribalari

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarmoqda.

Ta'lim tarkibi yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyoti ijodiy echimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Axborotning an'anaviy usullari og'zaki va yozma nutq, telefon va global masshtabli telekommunikatsiyalarni ishlatish bilan almashtirilmoqda.

Pedagogik jarayonning muhim tarkibini talaba bilan pedagogning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari tashkil etadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning shakllanishida fanning roli ortib bormoqda.

Pedagogik ta'lim texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- 1) yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tish, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish;
- 2) bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish;
- 3) o'rtacha talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning differentsiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;
- 4) talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishga o'tish [8].

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishi ishlatilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllari (qo'shimcha va alternativ) ning aprotatsiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi. Bunday sharoitda pedagog, boshqaruvchi keng ko'lamli zamonaviy innovatsion texnologiyalar, g'oyalar, o'quv muassasalar, yo'nalishlarda ma'lum bo'lgan narsalarni qayta ochishga vaqtini sarflash kerak emas.

Bugungi kunda savodli mutaxassis bo'lish uchun ta'lim texnologiyalarning hammasini o'rganish lozim.

Hozirgi vaqtda pedagogik lug'atda pedagogik texnologiya tushunchasi mustahkam o'rnanishgan. Adabiyotlarda o'nlab ta'riflarni uchratish mumkin. Keling ularning ba'zilarini qarab o'taylik. Jumladan, pedagogika fani va amaliyotida «pedagogik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi», «o'qitish texnologiyasi» kabi atamalardan keng foydalanilmoqda. Qo'yida ularning ba'zilarini ko'rib chiamiz:

«**Texnologiya**» - yunoncha ikki so'zdan – «**texnos**» (**techne**) – mahorat, san'at va «**logos**» (**logos**) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Bu ifoda xozirgi kunda zamonaviy texnologiya jarayonini to'liq tavsiflab berolmaydi [4].

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Texnologiya biror bir narsani yaratishni muayyan ketma - ketlik va tartibda amallarni bajarish jarayonidir [2]. Oddiy misol tariqasida o'zbek milliy taomlaridan biri - palov tayyorlash texno-logiyasini olaylik. Ushbu taomni tayyorlash muayyan ketma - ketlikdagi, ma'lum tartibdagi (jumladan, vaqt bo'yicha ham) amallarni bajarishni talab etadi. Uni tayyorlash jarayonini palov tayyorlash texnologiyasi, deb atash mumkin.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan ketma - ketlikda, tartibda va sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin [6].

Texnik texnologiya quyidagilarni bildiradi:

- xom-ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar yoki mahsulotlarni olish, ularga ishlov berish yoki qayta ishlash yo'llari va usullarining yig'indisi (texnologiyaning jarayonli – bayonli aspekti);

- yuqorida ko'rsatilgan yo'llar va usullarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan. Texnologiyaning fan sifatidagi vazifasi, moddiy resurslar va vaqtni eng kam sarflashni talab qiladigan samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash hamda amalda qo'llash maqsadida qonuniyatlarni topish hisoblanadi (ilmiy aspekti);
- jarayonning o'zi – qazib olish, topish, ishlov berish, qayta ishlash, tashish, omborga joylash, saqlash hamda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish (texnologiyaning jarayonli – harakat aspekti).

Ishlab chiqarishda «texnologiya» so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

-texnologik jarayon – ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

-texnologik operatsiya – ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga etkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

-texnologik xarita – ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarning ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat;

-texnologik reja – texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga mos holda qo'llaydigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan ketma - ketlikda, tartibda va sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi (B. Ziyomammedov).

Pedagogik texnologiya ijtimoiy zaruriyat bo'lganligidan dastavval AQSHda XX asrning 70-yillarida psixologiyaning bixeviorizm oqimi zaminida yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mamlakatlarga tez tarqalib ketdi.

Yer yuzi mamlakatlari ikki qarama-qarshi lagerga bo'linib, sovuq urush avjiga chiqqan davrda sotsializm tarafdorlari bu ijtimoiy hodisani mafkura nuqtai nazaridan tan olmay, ko'p yillar davomida uni ko'r-ko'rona inkor qilib kelishdi.

XX asr 90-yillarning boshida sotsializm nurab, unga a'zo bo'lgan davlatlar birin-ketin mustaqil bo'lganidan keyin, har jihatdan taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarga, shu jumladan, O'zbekiston uchun ham keng yo'l ochildi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va

samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. SHular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini chulg'ab oldi. Pedagog olimlar tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga o'nlab ta'riflar berilgan. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bospalkoning fikricha: « Pedagogik texnologiya (PT) – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvafaqqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir».

Rossiya olimlaridan V.M. Monaxov: «PT – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir», - degan qisqacha ta'rifni beraturib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi.

«PT – o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», - deydi V.M. Monaxov.

M.V. Klarin fikricha, PT – o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatgichlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashtiradi.

I.Ya. Larnerning fikriga ko'ra, PT – o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlanadigan, maqsadni ifodalaydi.

Nurali Sayidahmedov va Abdurahmon Ochilovlarning fikricha, PT – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «PT – ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir».

Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon pedagog olimi T. Sakomoto bergan ta'rifni keltiramiz. «PT, - deydi Sakomoto, - bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogika jarayonini muayyan bir tizimga keltirishdir».

Aynan tizimli yondashuv pedagogik texnologiyalarni o'qitishga boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik texnologiyaga berilgan boshqa ta'riflar (V. Gushaev, V. Slastenin, B. Lixachev, I. Volkov, M. Choshanov, CH.Yudit va boshqalar) ham keltiriladi, ammo ularning birontasi YUNESKO ta'rifi drajasiga ko'tarila olmagan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining nufuzli idoralaridan biri bo'lgan YUNESKOning ta'rifi bo'yicha, **«PT – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmualiy yondashuv usulidan foydalanishdir»**.

Keltirilgan ta'riflarni tahlil qiladigan bo'lsak, olimlarning bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto va YUNESKO ta'riflarida tizimli yondashuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan. Haqiqatda esa, ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga Sakomoto aytganidek, «PT – o'quv jarayonini muayyan bir majmuga keltirishdir», degan tushuncha kifoya qiladi. Bu tushuncha orqali PT ning boshqa hamma xususiyatlarini, ya'ni maqsadga yo'naltirilganligini, bir necha o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topganligini va boshqalarni anglab olsa bo'ladi. Chunki bu xususiyatlarning hammasi, tizimlar nazariyasiga binoan, tizim deb nom olgan narsa va hodisalarning ajralmas sifatlaridir. Demak, pedagogik texnologiyaning ikkita muhim xususiyatini ta'kidlash mumkin. Birinchisi, tizimliliigi bo'lsa, ikkinchisi, muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich pedagogik muolajalar amalga oshiriladigan jarayon ekanligidir [6].

O'zbekistonlik pedagog olim B.G'.Ziyomammedov pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif bergan: «PT – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbir».¹

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo'llashni tadqiq qilgan olimlar R. Ishmuxammedov, A. Abduqodirov, A. Pardaevlarning fikricha, pedagogik texnologiya – aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabani (yoki o'quvchi) ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Demak, pedagogik texnologiya muayyan ketma-ketlikda, tartibda amalga oshiriladigan, ta'lim oluvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq maqsadlarga yo'nalgan, puxta loyihalashtirilgan, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan va yakuniy natijaga erishishni kafolatlaydigan pedagogik jarayondir.

¹ Ziyomuyammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Ibn Sino, 2001.


Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, **pedagogik texnologiya** tushunchasi bilan **ta'lim texnologiyasi**, **interfaol uslublar** va **o'yin** kabi tushunchalarni bir birdan farqlash zarur. **Ta'lim texnologiyasi** tushunchasi aynan ta'lim (o'qitish, o'rganish) sohasiga taulluqli bo'lsa, **pedagogik texnologiya** tushunchasi nafaqat ta'lim, balki tarbiya jarayonini ham o'z ichiga oladi. **Interfaol** usullar pedagog va talabalarning o'zaro faolligiga asoslangan ta'lim-tarbiya usullaridir. Rolli va ishbop o'yinlar esa interfaol usullarning bir guruhini tashkil etadi. Pedagogik texnologiya jaryonida bunday usullardan bir nechitasi qo'llanilishi mumkin. Biz ushbu qo'llanmada interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni farqlagan holda, ularni aloxida bo'limlarda bayon etmoqchimiz.

Zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalar hamda taklif-tavsiyalar inobatga olinib ishlab chiqilgan darslik va o'quv qo'llanmalar modeli va ular asosida yaratilgan namunalar quyidagilardan iborat.

Zamonaviy darslikni yaratishda qo'yiladigan asosiy talablar:

- Davlat ta'lim standarti asosida ishlab chiqilgan fan dasturida asosiy o'quv materialini to'liq qamrab olishi;
- O'quv maqsadlarining (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) aniq qo'yilishi va yoritilishi;
- Nazariy va amaliy o'quv materialining o'zaro uzviyligi va aloqadorligi ta'minlanishi;
- ta'lim oluvchilarni faol bo'lishga va tanqidiy fikrlashga undashi va ularning qiziqishlarini o'ziga jalb qiladigan jihatlarning mavjud bo'lishi;
- faqat nazariy ma'lumot berish bilan cheklanmasligi, amaliy ko'nikmalarini shakllantiruvchi muammoli savollar, loyihalar, mashqlar va ijodiy topshiriqlar berilishi;
- ta'lim oluvchi bilimini o'z-o'zi baholash va mustaqil ta'lim olish uchun imkoniyat yaratishi;
- mazmun dalillardan namunalarga, namunadan-farazga, farazdan-izlanishga, izlanishdan-amaliy qo'llashga, ilmiy bilimdan-aniiq kasbiy bilimga, bilimdan-amaliy ko'nikma va kompetentsiyani shakllantirishga o'tishni ta'minlanishi;
- o'quv materiali tushunarli, mantiqiy va tizimli bayon etilishi, muhim ma'lumotlar ajratib ko'rsatilishi;
- milliy xususiyatlar hisobga olinishi;
- topshiriqlar va vazifalar keng ko'lamligi ta'lim oluvchilar bajaradigan amaliy ishlarni kichik guruhlarda tashkil etish imkoniyatini berishi;
- yoshlarni ma'lum fazilatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi;
- rasmlar, grafiklar, jadvallar, sxema va diagrammalar berilgan ma'lumotlar va tushuntirishlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak;

- mazmun juda ishonchli va salohiyat bilan yoritilishi kerakki, unda mualliflarning fan, texnika va texnologiyalar so'nggi yutuqlaridan foydalanganligi ko'rinib tursin;
- talabalar yoshi, saviyasi va psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olinishi,
- o'quvchilar mustaqil ishlari uchun amaliy topshiriqlar, mashqlar, loyihalar bilan ta'minlanishi;
- matnda atrof-muhit, uning ifloslanish va jamiyat salomatligi muammolari hamda ularni hal qilish yo'llari aks ettirilishi;
- darslikdagi takrorlanuvchi tushunchalarga va rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidalarga e'tiborni jalb etish maqsadida maxsus belgilardan foydalanish zarur.



1-chizma. Zamonaviy darslik modeli

Darslik yangi modelining afzalliklari (rivojlangan davlatlar darsliklaridan farqli jihatlari va afzalliklari o'z aksini topgan)

- darslik pedagogik va axborot texnologiyalari asosida yaratiladi;
- Talabaning mustaqil ta'lim olishiga to'la imkoniyat yaratadi;

- Har bir bob tugallangan yaxdit o'quv materiali sistemasi sifatida qaraladi. Talaba bitta bobni to'liq o'zlashtirigandan keyin ikkinchi bobga o'tishi tavsiya etiladi.
- o'quv maqsadining aniq qo'yilishi natijasida mazmun o'quv maqsadiga erishishni ta'minlaydigan tarzda taqdim etiladi;
- muammoli va munozarali savollar hamda amaliy ko'nikmalarini shakllantiruvchi loyihalar, mashqlar va topshiriqlar berilishi ta'lim oluvchining mustaqil va ijodiy ishlash hamda erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- ta'lim oluvchi bilimni elektron testlar orqali o'z-o'zini baholashga imkoniyat yaratadi. Topshiriqlar va testlarning ko'p variantlilik, ko'pdarajalilik va xilma-xilligini ta'minlaydi.
- Elektron qismi ochiq tizim bo'lib istalgan paytda fanning so'nggi yutuqlarini, yangi texnika va texnologiyalarga oid materiallarni va boshqa yangiliklarni doimiy kiritib borish mumkin;
- Elektron qismida murakkab ob'ektlar va jarayonlar animatsiyalar, tovushni kuzatishlar, giperjo'natishlar, videolavhalar va boshqa multimediali texnologiyalar ko'rinishida taqdim etilishi ta'lim oluvchiga tushunishni engillashtiradi.

I.2. Glossariy va o'zbek geografik terminshunosligi

O'zbek geografik terminshunosligining XX asrdagi taraqqiyotini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. XX asr boshidan 40 - yillargacha bo'lgan davr;
2. 1940 - 90 yillar;
3. 1990 yildan keyingi davr

XX asr boshidan 40 - yillargacha bo'lgan davr [18]

XX asr boshidan 40 - yillargacha bo'lgan davr o'zbek geografik terminshunosligi taraqqiyotining o'ziga xos davri hisoblanadi. Bu davrda eski o'zbek alifbosi ikki marta (1929 va 1940 yillari) o'zgartirilgan. 1929 yilgacha nashr etilgan barcha adabiyotlar arab alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida yozildi. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qisqacha umumiy jo'g'rofiya" (Samarqand, 1902), "Aholi jo'g'rofiyasiga kirish" (Samarqand, 1903), "Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi" (Samarqand, 1905), F.Karimiyning "Jo'g'rofiya" (Orenburg, 1902), Muhammad Amin Karimiyning "Jug'rofiyai riyoziy" (1914), Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining "Yer yuzi (jo'g'rofiya risolasi)" (Toshkent, 1913), N.I. Balashovning "Turkiston. Jug'rofiya o'qimligi" (Toshkent, 1925), "O'rta Osiyo iqtisodiy jo'g'rofiyasi" (Toshkent, 1925), "O'rta Osiyo iqtisodiy jo'g'rofiyasi" (Toshkent, 1926) kabi darslik va risolalar arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida yozilgan. Bu asarlarda xalq terminlaridan keng foydalanilgan. O'sha davrning eng mukammal va ommabop qo'llanmalaridan biri Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining "Yer yuzi" geografik risolasidir. Risolada hozirgi davr uchun eskirib muomaladan chiqib

ketgan deb hisoblanadigan terminlar – bahri muhit, kurai musanna, kurai musattah, xattiistivo, chaqirim va boshqalar bilan bir qatorda manba, mansab, sayyoh, cho'l, xarita kabi hozirgi geografik adabiyotda keng ishlatiladigan terminlar ham bor. Ko'rinib turibdiki, ushbu qo'llanmada keltirilgan terminlarning aksariyati arabcha terminlardir. Demak, o'sha davrda umuman terminshunoslikda bo'lgani kabi geografik terminshunoslikda ham arabcha terminlarning ta'siri kuchli bo'lgan.

Rus tilidan tarjima qilingan N.I. Balashovning darsligida ham shunday terminlarni uchratamiz.

G.Ivanovning “Boshlang'ich jo'g'rofiya” qo'llanmasida ham arz, asg'ariy, bandar, bekat, bo'y chizig'i, darajai rasatiya, yonar tog', janubiy mador, zanj, kura, kurai mujassama, mador o'rmonlari, miqyos, taqim otalar, terma kitob, tul, usuli ta'lim, ufq, xarita, xattiistivo, shimoliy mador, en chizig'i, yarim kura, yasama daryo, havoii nasimiy, hind qamichi kabi ko'pgina geografik so'zlar ishlatilgan.

A.Abizovning “O'zbekiston Sotsialistik Sho'rolari Jumhuriyati jo'g'rofiyasi” kitobida ariq, bo'y chiziq, viloyat, jumhuriyat, jo'g'rofiya, ziroatchilik, kimyo, xarita, en chiziq kabi ko'plab terminlar ishlatilganki, ularning aksariyati 30 - yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, rus va Yevropa tillari orqali kirib kelgan terminlar bilan almashtirildi. Shu bilan birga mazkur kitobda injener, passajir, prosess, temperatura, ekonomika kabi terminlar ham uchraydiki, bu narsa o'sha davrdan boshlab rus tili orqali horijiy tillar terminlarining o'zbek tiliga kirib kela boshlaganligidan dalolatdir.

A.Abizovning “O'lkani o'rganish dasrligi. Tabiat” kitobida O'rta Osiyo o'simliklari va hayvonot dunyosi haqida ma'lumotlar berilgan. O'rta Osiyo o'simliklari quyidagicha guruhlashtirilgan: erta bahor o'simliklari (gunafsha), chuchmoma, lolaqizg'aldoq, qayrag'och, foydali ildizlar (beda, tog' saqich), cho'l o'simliklari (saksovul, juzg'un), mevali o'simliklar (sholi, tariq, mosh), to'qimachilik o'simliklari (paxta, kanof va boshqalar), moyli ekinlar (kunjut, kanakunjut, xitoy bodom, ko'knori), begona o'tlar (g'umay, sariq pechak, qamish, qurmaq), daryo o'simliklari (darmana, totli tomir), hush hidli o'tlar (sumbul, taran), to'qay o'simliklari (jiyda, tol, terak), tog' o'simliklari (yovvoyi olma, nok, o'rik, archa, qayrog'och).

Hayvonot dunyosi baliqlar (fil bo'yin, laqqa), suvda ham quruqlikda yashovchilar (ko'k qurbaqa), sudralib yuruvchilar (sahro bo'g'ma iloni, toshbaqa, echkiemar), qushlar, yirik sut emizuvchilar (qulon, tog' echkisi, arxar, yumronqoziq, o'rmon suvsari, sirtlon, Tyanshan ayig'i, Qorako'l qo'yi, qo'tos) ga bo'lingan.

Ko'rinib turibdiki, muallif O'rta Osiyo o'simliklari va hayvonot olamiga oid xalq terminlaridan keng foydalangan.

30 - yillarning o'rtalari va ikkinchi yarmida rus tilidan tarjima qilingan darsliklar va qo'llanmalarda ham tarjimonlar xalq geografik terminlaridan foydalanishga harakat qilgan, lekin rus tili orqali ko'p xorijiy terminlar kirib kela boshlagan edi. 1930 yillarning o'rtalaridan boshlab o'zbek geografik nomlari buzila boshladi, an'anaviy geografik termin va nomlarga nisbatan ta'qib va siyosiy zo'ravonlik boshlanadi. 1937 yilgacha ishlatilgan xalq geografik terminlari turkiy til bilan bir qatorda, asosan arab va fors - tojik tillari orqali singib ketgan terminlardir.

1935 - 37 yillarda faqatgina terminlarimiz emas, fikr - qarashlarimiz, tilimiz, an'analarimiz, milliy urf - odatlarimiz yevropalashtirildi, hayotning turli jabhalarida yevropalashuv ildiz ota boshladi. Xalqimizning yillar davomida saqlab kelayotgan urf - odatlari, an'analari, qadriyatlari, shu jumladan, terminlari quvg'in ostiga olindi.

“Baynalmilalchilik” niqobi ostida xorijiy (rus tili orqali kirib kelgan) terminlar xalq terminlari o'rnini egalladi.

30 - yillarning o'rtalarida terminshunoslikka bag'ishlangan lug'atlardan biri O.Ibrohimovning “Geografiya atamaları” dir. Bu lug'at dastlabki urinish bo'lganligidan ayrim kamchiliklardan holi bo'lmagan. Geografik nomlar bilan birga terminlar ham berilgan, lekin terminlar va nomlar ancha tartibsiz, tavsiya etilgan terminlarning ko'pchiligi yasama, termin bilan nomning farqiga yetilmagan.

XX asr boshidan 40 - yillargacha bo'lgan davrda yaratilgan yana bir lug'at M.Bektemirov va S.Saidrasulovlar tomonidan tuzilgan “Qisqacha ruscha - o'zbekcha geografiya terminlari lug'ati”dir. Professor N.G.Mallitskiy va R.G'afurovlar tahriri ostida nashr etilgan ushbu lug'at oldingi lug'atdan biroz mukammalroq bo'lsa - da, bu ham kamchiliklardan holi emas. H.Hasanov ta'biri bilan aytganda “ unda ham xalq terminlariga e'tibor berilmagan, yasama so'zlar ko'p. Shuningdek, *ustup, utyos, stremnina, skala, podukt, purga, poyma, lyoss, obolochka, nanos, korabl* kabi so'zlar o'zbekchada ham aynan o'lin berilgan, holbuki ularning har birining o'zbekcha ekvivalentlari bor. Lug'atda yana ortiqcha so'zlar ham (masalan, *gryaz, dikar* kabi), noto'g'ri yozuvlar ham (masalan, *grigorian, yulian, laza, laguna* kabi) bor. Afsuski, O'rta Osiyo mahalliy geografik terminlarini juda yaxshi bilgan professor N.G.Mallitskiy ushbu lug'atda negadir keng quloqchoq bo'lmagan”

1940 yildan so'ng lotin imlosidan, kirill yozuviga o'tildi, shuning uchun yuqoridagi ikki lug'atning amaliy ahamiyati deyarli qolmadi.

1940 - 1990 yillar

1940 - 1990 yillar ham o'zbek geografik terminshunosligi tarixida alohida bir davrni tashkil etadi. 50 - yillarning boshlarida bir guruh geograflar tomonidan “Qisqa ruscha - o'zbekcha geografiya terminlari lug'ati” tuzildi. Ushbu lug'at “...ilgarigi barcha lug'atlardan ancha afzal bo'lib,

geografiyaning ko'pgina sohalarini qamrab olgan yangi va tartibli lug'at edi..."². Lug'at haqida matbuotda bir necha ijobiy fikrlar bildirilgan maqolalar e'lon qilingan, shu bilan ayrim e'tirozlar ham bo'lgan.

O'zbek geografik terminshunosligining tarixida, rivojlanishida hassos olim, mohir pedagog, geograf - terminshunos Hamidulla Hasanovning o'rmini alohida qayd etib o'tish lozim.

H.Hasanovning "Geografiya terminlari lug'ati" (T.,1964) kitobida o'zbek geografik terminshunosligining manbalari va taraqqiyoti, xalq atamalaridan namunalar, geografik terminlarning ruscha - o'zbekcha va o'zbekcha - ruscha lug'ati berilgan. Ruscha terminlardan "step"ning dasht, "pustinya" ning cho'l, "vpadina"ning botiq, "vodorazdel"ning suvayirg'ich, "zaliv"ning qo'ltiq deb va boshqa shu kabi ko'lab terminlarni o'zbek geografik terminologiyasida mustahkam qaror toptirish olimning hizmati natijasidir. Asarda terminlarni tanlash prinsiplari va ayrim xalq geografik atamalarining izohi berilgan.

Lug'atdagi xalq atamalari "Devonu lug'atit turk", "Badoyi lug'ati", "Kilurnoma", Shayx Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoy va turkiy usmoniy", L.Z.Budagovning lug'atidan va turli sayohatlar davomida to'plangan. *Arg'adol, orqa, "tog'ning og'zi", uchma, o'r, olatog', qoratog', o'y, o'y - qir, o'ydin, o'yqin yer, bayir (boyir), tirsak, ayri (ayrilish), osilma (yo'l), sakratma, sangboron (sangbo'ron), etak, tumshuq, ko'l, qorako'l, bo'z (yer, suv, tuproq), to'rtko'l, chink, chopqun yog'in, qoradovul, garmsar, sarsar, angiz (angqizoq), jiltir muz, serka muz, muzdoq (do'l), yaqoriqon, yel yoq, obdon, ters oqin, girdob, oqma, oyoq (odoq), butoq (shoxcha, qo'l), zix, qodir yer, erkuz suv, oqim, chuqurdon, sel (seldara), guzar (kechuv), o'zgun suv, o'zdurma, toyig', qo'l, qopchig'ay, ko'ksuv, qisnoq, qumtosh (toshqum), to'qay, qo'shorol, oyqin ko'l, chig'ir va boshqa ko'pgina xalq atamalari izohlab berilgan. Bulardan tashqari, xalqimizning ming yillar davomida tabiat hodisalariga zehn solib, qiziqish bilan qarab, kuzatib kelishi natijasida paydo bo'lgan xalq iboralari ham tahlil etilgan. Chilla, "oy o'tov tutdi", ayamajiz, beshqo'noq, "o't yoqmas oyi" (aprel), "sorcha" (iyul), qirqkuyak (avgust), mezon oyi (sentabr), "qoracha" (oktabr), "xazon oyi" (xazonrezgi) (oktabr - noyabr), "qozon oyi" (noyabr), "so'g'um oyi" (noyabr - dekabr), "qantar oyi" (dekabr), "o'p'qon" (yanvar) kabi atama va oy nomlari, "javzoda arpa pishadi", "asad ekinini yasat", "qantarda qarg'a odimiday kun uzayadi", "ayamajiz olti kun, qahri kelsa qattiq kun" kabi xalq naqlari izohlangan.*

H.Hasanovning "Mahmud Koshg'ariy" (T., "Fan", 1963) kitobchasida ham xalq geografik terminlari izohlangan.

1958 yili A.S.Barkovning "Словарь справочник по физической географии" kitobi o'zbekchaga tarjima qilindi (T., "O'quvpeddavnashr", 1958). Lekin o'zbek tilida mahalliy mualliflar tomonidan yozilgan geografiyadan birinchi izohli lug'at 1979 yilda yozildi.

² Hasanov H. Geografiya terminlari lug'ati. T., "Fan", 1964, 10-bet

S.Qorayev, P.N.G'ulomov va R.U Rahimbekovlar tomonidan tuzilgan ushbu lug'at o'lkashunoslik prinsipida, mahalliy geografik atamalarni o'z ichiga olgan holda, mukammal yozilgan o'zbek tilidagi geografiyadan birinchi izohli lug'atidir. Lug'atda geografiya terminlaridan tashqari muhim ahamiyatga molik ilmiy - nazariy tushunchalarning ham izohi berildi. Lekin iqtisodiy geografik terminlar nisbatan kam berilgan, mualliflar iqtisodiy geografiya terminlari lug'ati kengaytirilgan tarzda tegishli mutaxassislar tomonidan alohida tayyorlanishini lozim topishdi. Lug'atda *adir, ayoz, azon, aydar, ayri, angqizoz, angor, ang'iz, anhor, arna, achchi, aqba, badoq, band, bandar, beshqo'noq, voha, garmsel, damba, darband, deygish, dovon, do'ng, yovon (yobon), yona, jala, jangal, jilg'a, jimbuloq, jo'y, zayak, zov, zovur, ildirim, irmoq, yilg'a, kamgak, kent, kechuv, kom, koriz, kunash, kungay, ko'lanka, ko'lmak (xalqob), ko'lob, ko'sa yer, ko'tal, ko'tarma, langar, mavze, mansab, marza, marg'zor, mashriq, muztog', mo'ynoq, nahr, nov, nura, obdon, obombor, ovdon, ovloq, ovring, oydin, olatov, olish, orol (ota), orqa, osilma, otanoq, oftobro', oshuv, oqin, oqqum, oqquyu, og'iz, partov yer, rabod (rabot), sayrob, sayxon, sakratma, sangbo'ron, sangir, sangzor, sardoba, sarg'an yer, sel, soy, taqir, tepa, terskay, to'qay, unguz, ungur, chashma, chilla, chopqun yog'in, chuvoq, shovva, shovush, sho'rtob, sho'rxok, yut, yaylov, o'zan, o'zbo'y, qaynar, kasaba, qashqa, qisnoq, qoq, hovar, hovuz, homa* va boshqa ko'pgina xalq (mahalliy) geografik terminlari izohlab berilgan. Ushbu lug'at ko'p yillar davomida o'qituvchilar, talabalar va o'quvchilar uchun dasturilamal xizmatini o'tab keldi.

Xullas, 1940 - 90 yillar o'zbek geografik terminshunosligi tarixining o'ziga xos xususiyatlari shulardan iboratki, 40 - yillardan 90 - yillar boshlarigacha yozilgan geografiya darsliklari, qo'llanmalari, asosan rus tilidan tarjima qilinganligi sababli, bu davrdagi terminlarning aksariyati **tarjima terminlaridir**.

1990 - yillardan keyingi davr.

Bu davr mustaqillik davri hisoblanadi. 90 - yillarning boshidan boshlab bir necha tarjima va izohli lug'atlar bosib chiqila boshlandi.

1992 yilda taniqli olim Mirortiq Mirabdulla o'g'li (Ortiq Mo'minov) ning "Jo'g'rofiy atamalar lug'ati" nashr qilindi. Muallif tili bilan aytilganda "...mazkur lug'atdan 1929 yilga qadar chop etilgan arab alifbosi (o'zbek tili)dagi jo'g'rofiy nashrlar, 1939 yilgacha nashr etilgan lotin alifbosidagi jo'g'rofiy darslik va qo'llanmalar, 1940 yildan keyin bosmadan chiqqan jo'g'rofiy lug'atlarni varaqlab, tahlil qilib, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan jo'g'rofiy atamalarni qayta ishlash va ayrim yangi atamalarni yaratishga oid olib borilgan dastlabki tadqiqot natijalari o'z ifodasini topdi ...".

Lug'atda o'zbek geografik terminshunosligining asrimiz boshlaridagi qisqacha tarixi ham bayon etildi. "...1937 yildan boshlab jo'g'rofiy lug'atimizda, jo'g'rofiy atamalarda anchagina

salbiy o'zgarishlar ro'y berdi, ta'bir joiz bo'lsa tilimizning sharqona, an'anaviy, milliy tarovati yo'qolib ovrupolashdi, yasama so'zlar paydo bo'ldi ..."¹. Haqiqatdan ham, ko'pgina arab, fors - tojik, turkiy terminlar o'niga rus tili orqali kirib kelgan xorijiy terminlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, muallifning ayrim terminlar xususida o'z fikr - mulohazalari bayon etilgan. Bularning hammasiga qo'shilib bo'lmaydi, albatta. *Geografiya* o'niga *jo'g'rofiya*, *ekvator* o'niga *xattiistvo*, *tropik* o'niga *mador*, *okean* o'niga *ummon*, *parallel* o'niga *muvoziy*, *materik* o'niga *qarrat* kabi eskirib, muomaladan chiqib ketgan terminlar ham taklif etilgan. Fan rivojlanib borgan sari ayrim termin va tushunchalar ham eskirib muomaladan chiqib boradi, yangi terminlar paydo bo'ladi. Shunday ekan ayrim, eskirib muomaladan chiqib ketgan terminlarni yana zo'rma - zo'raki tilga kirtish ham to'g'ri emas. Lug'atda *karta* o'niga *xarita*, *zapovednik* o'niga *qo'riqxona*, *kanal* o'niga *ariq* kabi taklif etilgan terminlar o'rinlidir.

“Jo'g'rofiy atamalar lug'ati” dan so'ng, 1993 yilda geograf - terminshunos P.N.G'ulomovning “Geografiyadan qisqacha ruscha - o'zbekcha atamalar va tushunchalar lug'ati” bosilib chiqdi. Ushbu lug'atda, o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan ilgari qabul qilingan ayrim terminlar qayta ko'rib chiqilib, iloji boricha o'zbekchalashtirishga harakat qilingan. Lug'at so'z boshisida ruscha termin va tushunchalarning o'zbekcha muqobilini topish va tanlashdagi manbalar ko'rsatilgan. Shuningdek, geografiya terminini jo'g'rofiyaga almashtirish noto'g'ri ekanligi aytib o'tilgan va unga bir qancha dalillar keltirilgan. Taklif etilayotgan ayrim terminlarni eskirib, muomaladan chiqib ketganligi to'g'ri qayd etilgan.

A.Rasulov, F.Hikmatov va A.Akbarovlar tomonidan chiqarilgan “Gidrologiya atamalari va tushunchalarining ruscha - o'zbekcha lug'ati” (T., “Universitet”, 1993) dan ham ko'pgina ruscha gidrologik terminlar o'niga o'zbek tilidagi mahalliy terminlardan foydalanishga harakat qilingan, ayrim terminlarning qisqacha izohi ham berilgan. Bunda ilmiy - baynalmilallik tamoyili ham saqlanib qolgan bo'lib, gidrologik ilmiy - tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1994 yilda P.N.G'ulomovning “Jo'g'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati” kitobi nashr etildi. Bu lug'atda maktab geografiya darsliklari va dasturlari, xaritalar hamda turli sayohatlar davomida to'plangan xalq (mahalliy) geografik terminlarining izohi berildi. Garchi lug'at maktab geografiya terminlari va tushunchalari izohli lug'ati bo'lsada, unga maktab darsliklari va dasturlarida ko'zda tutilmagan xalq (mahalliy) geografik atamalari ham kiritilgan. Izohli lug'atning so'zboshisida, muallif terminlar tanlashdagi prinsiplar (mezonlar) ni sanab o'tgan. Lug'atda ayrim sabablarga ko'ra, geografiya termini o'niga (garchi muallif “geografiya” tarafdori bo'lsada) jo'g'rofiya deb ishlatilgan, shunga bog'liq ravishda *jo'g'rofiy bashorat*, *jo'g'rofiy zonallik*, *jo'g'rofiy kenglik*, *jo'g'rofiy koordinatalar*, *jo'g'rofiy mintaqqa*, *jo'g'rofiy muhit*,

¹ Mirortiq Mirabdulla o'g'li. Jo'g'rofiy atamalar lug'ati. T., “Fan”, 1992, 10-bet.

jo'g'rofiy uzunlik, jo'g'rofiy xarita, jo'g'rofiy qobiq, jo'g'rofiya, zoojo'g'rofiya, iqtisodiy jo'g'rofiya kabi terminlar qo'llanilgan. "Jo'g'rofiya atamaları va tushunchalari izohli lug'ati" tarkibida xalq (mahalliy) geografik atamalarning seroblighi, ular izohi ham berilganligi bilan ajralib turadi, ayrim hollarda terminlarning etimologiyasiga ham e'tibor berilgan.

Umuman olganda ushbu davrda o'zbek geografik terminshunosligiga oid H.Hasanov (1963, 1964), S.Qorayev (1979, 1986), P.G'ulomov (1979, 1993, 1994), R.U.Rahimbekov (1979), O.Mo'minov (1993), Q. Hurrarov(1981)larning ilmiy ishlari va turli maqolalari nashr etildi.

1989 yil 21 oktabrda o'zbek tili Davlat tili deb e'lon qilingandan so'ng, darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlarni o'zbekchalashtirishga kirishildi. Lekin ayrim eskirib, muomaladan chiqib ketgan terminlarni yana qaytadan fanga olib kirish holatlari ham kuzatildi.

Quyida ayrim terminlarni biz taklif etadigan variantlarini keltiramiz:

Absolyut balandlik - mutlaq balandlik

Agat - aqiq

Agrobiosenoz - agrobiosenoz

Agroklimatologiya - qishloq xo'jaligi iqlimshunosligi

Adaptasiya - moslashuv

Aysberg - muztog', aysberg

Antisiklon - antisiklon

Arid iqlim - qurg'oqchil iqlim

Atmosfera - havo qobig'i, atmosfera

Barxan - barxan, qumtepa

Basseyin - havza, hovuz

Bedlend - buzuv yer, yaroqsiz yer, moxov yer

Val - marza, do'nglik

Valun - g'o'latosh

Vulkan - vulqon, yonartog'

Vulkanologiya - vulqonshunoslik

Gavan-bandar, bandargoh

Galo - gardish

Garmsel - garmsel, issiq shamol

Geografiya - geografiya

Geografik zona - geografik zona

Geografik sikl - geografik davriylik

Geografik karta - geografik xarita

Geografik kenglik - geografik kenglik
Geografik kompleks - geografik majmua, kompleks
Geografik qobiq - geografik qobiq
Gidrosfea - Yerning suv qobig'i, gidrosfera
Globus - globus
Glyatsiologiya - muzshunoslik, glyatsiologiya
Gorizont - ufq, gorizont
Gradus to'ri - daraja to'ri
Grunt suvi - sizot suv
Dalhomer - uzoqlik o'lchagich, dalhomer
Delta - delta, daryo mansabidagi tekislik
Denudatsiya - yuvilish, olib ketish, denudatsiya
Dominant - asosiy, hukmron
Drenaj - zovur, suvni qochirish
Dyuna - qumtepa, dyuna
Zakaznik - zakaznik, buyurtma maskan
Zapas - zahira
Zapovednik - qo'riqxonasi
Zenit - tik tepa, zenit
Irrigatsiya - sug'orish
Kanal - ariq, kanal
Kanyon - chuqur dara, tor vodiya
Kaolin - chinni gil
Karta - xarita
Kartografiya - xaritashunoslik, kartografiya
Klimatologiya - iqlimshunoslik
Komponent - tarkibiy qism, komponent
Kontur karta - yozuvsiz xarita
Kotlovina - qozonsoy, tovoqsoy, soylik
Krater - vulqon og'zi, chuqurlik, krater
Krik - tentaksoy, quruq o'zanli soy
Kriosfera - sovuq qobiq, muz qobig'i, kriosfera
Laguna - sayoz qo'ltiq, ko'rfaz, laguna
Landshaft - landshaft
Lyoss - soztuproq, lyoss

Limnologiya - ko'lishunoslik
Liman - ko'rfaz, qo'ltiqcha
Litosfera - toshqobiq, litosfera
Masshtab - masshtab
Meandra - ilonizli o'zan, meandra
Meditcina geografiyasi - tibbiyot geografiyasi
Meridian - meridian, tush chizig'i
Migratsiya - ko'chish
Milliy park - milliy bog'
Miraj - sarob
Navigatsiya - kemalar qatnovi, navigatsiya
Okean - okean
Okeanografiya - okeanshunoslik
Oriyentirlash - chamalash, mo'ljal olish
Orogenez - tog' paydo bo'lishi
Osadkometr - yog'ino'lchagich
Parallel - parallel
Plan - tarx, reja, plan
Planeta - sayyora
Plato - supaqir, yassi va to'liqsimon baland tekislik
Poyma - qayir
Reg - qum, qumli cho'l
Region - hudud, o'lka, region
Relyef - relyef, yer yuzasi tuzilishi
Resurs - boylik
Savanna - savanna
Seysmologiya - seysmologiya, zilzila haqidagi fan
Sinekliza - sinekliza, yassi botiq
Sopka - yakka tepa (tog', do'ng)
Subtropik - tropikyoni, subtropik
Subtropik iqlim - subtropik iqlim, tropikyoni iqlimi
Subekvatoriyal - subekvatorial, ekvatoryoni
Sutka - sutka, kecha - kunduz
Temperatura - harorat
Terrasa - ko'hna qayir, terrasa

Territoriya - hudud, maydon
Topografiya - topografiya, joyni o'rganuvchi fan
Topnimika - toponimika, joy nomlarini o'rganuvchi fan
Toroslar - uyurma muzlar, qalashma muzlar
Tropik - tropik
Tuproqlar kartasi - tuproqlar xaritasi
Uvallar - yassi tepaliklar
Firn - qotgan qor, firn
Flyuger - flyuger, shamol yo'nalishini o'lchaydigan asbob
Siklon - siklon, quyun
Ekvator - ekvator
Ekologik krizis - ekologik buxron
Episentr - zilzila markazi
Ekosistema - ekologik tizim
Endogen prosesslar - endogen jarayonlar, ichki kuchlar ta'sirida bo'ladigan jarayonlar
Efemer - qisqa umrli (o'simlik), efemer
Qo'ltiq - ko'rfaz, qo'ltiq
Hamada - toshloq cho'l, hamada
O'zbek geografik terminshunosligining rivojlanishida tarjima (ruscha - o'zbekcha)

adabiyotining ahamiyati.

Geografik terminshunoslikning rivojlanishida tarjima adabiyoti muhim o'rin tutadi. Tarjima jarayonida tarjima terminlari paydo bo'ladi. Bunday terminlar o'z tilimiz zahirasidan olinadi. Hayot to'xtab qolmagani kabi geografik terminlar va tushunchalar ham to'xtovsiz boyib boradi. O'z tilimizda yo'q bo'lgan termin va tushunchalar boshqa xalqlar tillaridan bizning tilimizga kirib keladi. Lekin boshqa xalqlar tilidan kirib kelgan terminlar ko'pincha qabul qiluvchi xalqlarning talaffuziga, til qoidalariga (xususiyatlariga) moslab, biroz o'zgartirilib olinishi mumkin [18].

O'zbek geografik terminshunosligida tarjima terminlari (ruschadan) o'tgan asrning 30 - yillaridan paydo bo'la boshlagan edi. O'sha davrda mamlakatimizda geografiya ta'limining rivojlanishi, geografik bilimlarning ommalashuvida, rus tilidagi geografiya darsliklari va qo'llanmalar tarjimoni A.Abizovning xizmatlari katta bo'ldi. A.Abizov rus tilidagi bir qator o'rta va oliy maktab darsliklari tarjimonidir. Olimning 1933 - 1939 yillar davomida rus tilidan tarjima qilgan "O'lkani o'rganish darsligi. Tabiat" (T., O'zdnashr 1933), A.S.Barkov va Polovinkinlarning "Tabiiy geografiya" (T., O'zdnashr, 1936) va "Fizik geografiya" (Toshkent, Samarqand, 1939) darsliklaridagi ayrim terminlar haqida to'xtalib o'tish lozim. Dastlabki ikki

darslik tarjimalaridagi terminlar o'rtasida deyarli farqlar yo'q. 1933 yilgi tarjimada *jo'g'rofiya*, *xarita*, *yer usti shakllari*, *do'ng* (tepalik), *ma'dan chashmalari*, *mag'ora* (g'or), *egrilik*, *daryo tindirmalari* (cho'kmalari), *darajalik to'r*, *bo'ylik* (uzunlik), *tabaqalik tog'* (palaxsali tog'), *taqim orollari*, *muztog'* kabi oldindan qo'llanib kelingan terminlar ishlatilgan. 1936 yilgi tarjimada bo'lsa, *jo'g'rofiya*, *xarita*, *plan olish*, *masshtab*, *taxminlash*, *vizir chiziq*, *do'ng*, *gorizont*, *qumtosh*, *granit*, *ma'dan chashmalari*, *artezian*, *karstlik hodisalar*, *magora*, *stalaktit* va *stalakmit*, *manba*, *suvayirg'ich*, *asl qirg'oq*, *egriliklar* (meandra), *temperatura*, *lab*, *buxta*, *gorizont*, *darajalik to'r*, *ekvator*, *meridian*, *parallel*, *kenglik* va *bo'ylik*, *orbita*, *litosfera*, *gidrosfera*, *atmosfera*, *episentr tabaqali tog'*, *troposfera*, *stratosfera*, *izoterma*, *barometr*, *flyuger*, *briz*, *musson*, *tropik poyas*, *muztog'* va boshqa terminlar qo'llanilgan. Ushbu tarjimada ilmiy geografik adabiyotga rus tili orqali kirib kelayotgan yangi atamalar bilan birga, *taxminlash*, *do'ng*, *ma'dan chashmalari*, *mag'ora*, *asl qirg'oq*, *egrilik*, *poyas* kabi ko'pgina terminlar avvalgi shakllarida ishlatilgan.

1939 yilgi tarjimada esa rus tili orqali kirib kelgan yangi terminlar ko'proq qo'llanilgan: *geografiya*, *karta*, *kompas*, *fizik geografiya*, *terrasa*, *sutka*, *gradus (to'ri)*, *arxipelag*, *poyas* va boshqalar.

Ruscha *землетрясение*—*zilzila*, *нещера* - g'or, *умеренный пояс* - o'rtacha poyas, *оползень* - o'pirilish deb tarjima qilindi, xolbuki ungacha bu terminlarining o'zbek tilidagi tarjimalari, yani *yer qimirlashi*, *ungur*, *mo'tadil mintaq*a, *surilma* kabi terminlar bo'lgan.

Aynan mana shu yillari geografik terminlarda o'zgarishlar sodir bo'ldi. Buni quydagi jadvaldan ko'rish mumkin:

Ruscha	1936 y. Tabiiy jo'g'rofiya (A.Abizov tarj.)	1939 y. Fizik geografiya (A. Abizov tarj.)
География	Jo'g'rofiya	Geografiya
Карта	Xarita	Karta
Компас	Kompas	Kompas
Сутка	Kun - tun	Sutka
Рельеф	Er usti shakllari	Er usti formalari
Устье	(dryoning) quyilish joyi	Mansab
Холм	Do'ng	Do'ng
Оползень	Surilma	O'pirilish
Землетрясение	Er qimirlashi	Zilzila
Атмосферное давление	Atmosfera bosimi	Atmosfera bosimi
Планшет	Planshet	Planshet
Перистые облака	Parra bulutlar	Patli bulutlar
Овраг	Jar	Chuqur
Пояс	Poyas	Poyas
Умеренный пояс	Mo'tadil poyas	O'rtacha poyas
Пещера	Mog'ora	G'or
Долгота и широта	Bo'ylik va kenglik	Uzunlik va kenglik
Меандр	Egrilik	Meandr
Градусная сеть	Darajalik to'r	Gradus to'ri
Глыбовые горы	Tabaqali tog'	Palaxsali tog'
Архипелаг	Taqim orollari	Arxipelag
Айсберг	Muztog'	Aysberg
Физическая география	Tabiiy jo'g'rofiya	Fizik georafiya

40 - yillarning boshlarida nashr etilgan darslik, qo'llanma va lug'atlarda ayrim terminlar rus tilidagi xolicha qo'llangan. M.X.Bektemirov va S.M.Saidrasulovlarning ruscha - o'zbekcha lug'atida *уступ, утуос, стремнина, скала, продукт, пурга, пойма оболочка, нанос, корабл*

kabi ruscha so'zlar o'zbek tilida aynan berilgan. Vaholanki ularni o'zbekcha muqobillari mavjud: *jarlik*, *qoyatosh* (tik qoya), *ostona* (daryoning tezoqar joyi), *qoya*, *mahsulot*, *qor bo'roni*, *qayir*, *chuqur joy* (o'zanda), *qobiq*, *oqiziq* (jinslar), *kema* kabi. Keyingi nashr etilgan geografik adabiyotlarda atamalar biroz barqarorlashgandek bo'ldi.

O'zbek geografik terminshunosligi, lug'atchiligi tarixida, terminlarning barqarorlashuvi va qat'iylashuvida atoqli olim H.Hasanovning "Ruscha - o'zbekcha va o'zbekcha - ruscha geografiya terminlari lug'ati" (T, 1964) kitobi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Kitob so'zboshisida muallifning ayrim terminlar xususidagi mulohazalari berilgan. Ruscha "*осадок*" so'zining bir necha ma'nosi bor. Ximiyada *cho'kma*, *quyqa* deb olingan, geografiyada атмосферные осадки - *yog'inlar* deb ishlatiladi. Geologiyada *осадочные породы* - *cho'kindi jinslar* deyiladi.

Ammo geografiyada yerning va dengiz ostining chuqurchasini ifodalaydigan *впадина* so'zini *cho'kma* deyish - yuqoridagilarga zid bo'lib qolmoqda. Demak, *впадина* so'zi uchun boshqa termin topishimiz kerak. Lug'atda *botiq* va *chuqurcha* so'zlarini ishlatdik.¹

Поверхность - *yuza*, *sirt*, *ust*, *оболочка* - *qobiq*, *кора* - *po'st*, *пласт* - *qavat*, *слой* - *qatlam*, *покров* - *qoplam*, *высокие облака* - *baland bulutlar*, *верхние облака* - *yuqori bulutlar* (yoki *baland bulutlar*) deb qat'iy tarzda tarjima qilinadi. Shuningdek, terminologiyada ayrim sinonimlar qatoridan dominantlar ajratib ko'rsatilgan: ruscha *водонад* so'zining sinonimlari (*sharqirama*, *sharshara*, *shovva*, *uchrasuv*) orasidan *sharshara* dominant qilib olinadi. *Наводнение*, *разлив*, *поводок*, *полная вода*, *поводье* so'zlarining har biriga muqobil so'z topiladi: *Наводнение*—umuman *toshqin*, *поводок* - ma'lum mavsumda (bahor yoki kuzda) muz yoki qor erishi, *yog'in* *yog'ishi* bilan suvning qisqa muddatga birdan ko'payishi yoki toshishi, *полная вода* - suvning eng ko'tarilgan holati, to'lin suv, *половодье* daryoda, umuman suvning ko'payishi hodisasidir. H.Hasanov ruscha *стень* so'zining *cho'l* emas, balki *dasht* deb tarjima qilinishi lozimligini 1952 yildayoq aytib o'tgan edi. Ushbu fikr yuqoridagi kitobda ham ma'qullanib, bir necha dalillar keltirilgan. Lug'atda esa *стень* - *dasht*, *стень* deb berilgan. Keyinchalik *dasht* bo'lib ketdi va lug'atlardan chuqur o'rin oldi. Ushbu ruscha - o'zbekcha lug'at ko'p yillar davomida geograf - tarjimonlar uchun dasturilamal bo'lib keldi.

Ruscha - o'zbekcha geografiya lug'atchiligida geograf olimlardan YU.Sultonov, M.Qoriyev, N.Dolimov, M.Mirboboyev keyinchalik P.G'ulomov, S.Qorayev va R.Rahimbekovlarning hizmatlari kattadir.

Ushbu olimlar tomonidan bir qancha oliy va o'rta maktablar uchun darsliklar, qo'llanmalar o'zbek tiliga o'girildi.

¹ Hasanov H. Geografiya terminlari lug'ati. T., "Fan", 1964, 6-7 betlar.

Xullas, 90 - yillarning boshlariga qadar rus tilidan qilingan tarjimalar natijasida geografik adabiyotlarda **tarjima terminlari** paydo bo'ldi. Ayrim terminlar kalka yo'li bilan tarjima qilindi: *водораздел* - suvayirg'ich, *водохранилище*—suv ombori, *плоскогорье*—yassi tog'lik, *полнолуние* - to'lin oy, *ледокол*—muzyorar, *ледорез*—muzkesar, *дождемер*—yog'uno'lchagich kabi.

Mustaqillik davridan boshlab darsliklar, o'quv qo'llanmalari mahalliy, o'lkashunoslik prinsiplariga amal qilgan holda o'zbek tilida yozilib, nashr etila boshlandi.

II.Bob. Geografiyadan glossariy tuzishning ayrim masalalari

II.1.Geografiya ta'limida glossariy tuzish va ulardan foydalanish

Izoh-soʻz, ibora, voqea-hodisa va boshqalarga beriladigan tushuntirish, sharh, tavsif, shu bilan birga matnning ayrim joyiga kiritilgan yoki ayrim masalaga berilgan qoʻshimcha maʼlumot,tushuntirish, eslatma, uqtirish maʼnosini anglatadi.

Izohli lugʻat-lingvistik lugʻat turlaridan biri boʻlib, unda lugʻatga kiritilgan har bir soʻzning maʼnosi belgilanadi va qayd qilinadi. SHu bilan birga bu maʼnolar izohlanadi,yaʼni tushuntiriladi.Huddishxususiyatiga koʻra Izohli lugʻat deb ataladi [13].

Glossariy-muayyan mavzuga oid atamalarni qamrab olgan kichik hajmli lugʻatdir.

Glossariy-izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib beruvchi yoki kam qoʻllaniluvchi soʻz hamda iboralar lugʻatidan tashkil topadi. Uning 2 xil koʻrinishi mavjud: 1) Izohli glossariy 2) Tarjima glossariy [13]

Glossariy alohida nashr etilmay, chet tilidan tarjima qilingan asarlar qismi, bobi ketidan yoki chet tili darsliklarida berilgan mashq matnlari ketidan keltiriladi. Ularda oʻsha tilga xos boʻlgan va matnga kiritilgan soʻzlar yoki iboralar roʻyxati keltirilib, ularning izohi ilova qilinadi³.

Glossariy koʻproq ingliz, fransuz, nemis tiliga oid darsliklarda uchraydi.

Geografiya fani boʻyicha glossariy tuzishda mualliflar jamoasi tuziladi. Mualliflar jamoasiga fan oʻqituvchisi, soha mutaxassislari, metodistlarni kiritish tavsiya etiladi.

Yaratiladigan glossariyning sifati mualliflarning pedagogik va kasbiy mahoratiga, ularning bilimdonligiga bogʻliq boʻladi.

Dastlab taʼlim yoʻnalishi (mutaxassislik) davlat taʼlim standarti va oʻquv rejasi bilan tanishish tavsiya etiladi. Soʻngra tuziladigan glossariy tarkibi ishlab chiqiladi. Har bir komponent mazmuni fan boʻyicha qoʻyilgan maxsus talablardan kelib chiqqan holda shaxsga yoʻnaltirilgan, rivojlantiruvchi va mustaqil taʼlim talablari va tamoyillari asosida ishlab chiqilishi kerak

Mualliflar birinchi navbatda tuziladigan glossariyning kontseptsiyasini yozma ravishda tavsiya etishlari, reja tuzishlari, mazmuniy-uslubiy tizimni bayon qilishlari, komponentlar orasidagi oʻzaro integratsiyani joriy qilish yoʻllarini izohlashlari va shu bilan birga oʻzlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishlari kerak. Glossariyni yaratish va takomillashtirishga doir seminarlar va oʻqishlar tashkil etilishi tavsiya etiladi.

³Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 3-jild, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2002

Bir necha kishidan iborat mualliflar birgalikda glossariy yaratishda quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:


- O'zaro fikr almashish uchun tez-tez uchrashish orqali shaxsiy munosabatni o'rganish;
- barcha ish rejalarni tuzish va muhim qarorlarni birgalikda qabul qilish;
- vazifalarni mantiqiy va maqsadli taqsimlash;
- glossariy yaratish muddatlarini belgilab olish va ularga amal qilish;
- yagona yondashuvni saqlab qolish uchun komponentlar shakl va tuzilmasini belgilab olish.

Fan o'qituvchisi uchun yangi tuziladigan glossariydan samarali foydalanishi uchun uslubiy maslahatlar va ko'rsatmalar berilishi kerak.

Glossariy – fan mavzularining muhim qismi bo'lib, mutaxassislarni tayyorlashda didaktik boshqarish vositasi hisoblanib, ta'lim jarayonini tizimli-uslubiy ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan adabiyotdir qismidir. Glossariy pedagogik tizimning majmuiy ma'lumot modeli bo'lib, ma'lum darajada tarkibini belgilovchi elementlarini aks ettiradi.

Glossariyning asosiy funksiyasi- talabalarning fan mavzulari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va mustaqil bilim olish hamda mehnat faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat bo'lishi kerak.

Glossariyning mazmuni Davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan o'quv dasturiga muvofiq aniqlanadi.



2-rasm. O`UM da glossariyning o`mi

Glossariy– fanning tarkibi va o'qitish mazmuni, metodikasi va vositalari hamda talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash metodlari to'g'risida to'liq tasavvur qilishga imkon beradi.

Glosariy tuzishda quyidagilar asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi:

1. Fanning namunaviy va ishchi dasturi fan dasturida talaba muayyan fan bo'yicha egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal hajmini belgilaydi. O'nda fanning tarkibi, mazmuni, o'qitishga ajratilgan vaqt, o'quv-didaktik vositalari ro'yxati va o'qitish metodikasi bo'yicha tavsiyalar va mavzuiy rejalar beriladi [4].

Mavzuiy rejalar o'quv materialini to'g'ri taqsimlashda mazkur fanni boshqa fanlar bilan bog'lashda, darsga kerakli o'quv materiallari va jihozlarini tayyorlashda yordam beradi, o'qish jarayoning samaradorligini oshirish sharoitini yaratish imkonini beradi.

2. Darslik – ta'limning dastur, uslubiyot hamda didaktik talablarga binoan belgilangan maqsad va vazifalariga muvofiq muayyan bir o'quv fan mavzulari to'liq yoritilgan hamda o'quv faniga oid ilmiy bilimlar asoslari bayon qilingan adabiyotdir.

2. Qo'shimcha materiallar. Qo'shimcha materiallarga mazkur darslikdan foydalanish tartibi, o'quv materialini o'rganishga tegishli elektron vositalar (multimedia, virtual stendlar, animatsiyalar va h.k.) va ulardan foydalanish tartiblari kiradi.

3. O'quv qo'llanma - nashr sifatida rasman tasdiqlangan, darslik o'rmini qisman bosuvchi yoki uni o'quv adabiyotidir.

4. Ma'ruzalar matni - muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi mavzularining asosiy mazmuni yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi buyicha chikariladigan kichik adadli tarqatma material.

5. Uslubiy qo'llanma - o'qituvchilar (professor-o'qituvchilar) va bilim oluvchilar uchun mo'ljallaigan bo'lib, darsning maqsadi va ta'lim natijalari, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va hokazolar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

6. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni bajarish buyicha uslubiy ko'rsatma - muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

7. Mustaqil ishlar va ularni bajarish buyicha uslubiy kursatmalar. Fan buyicha mustaqil ishlar mavzulari va ularni bajarish buyicha uslubiy ko'rsatmalar majmui beriladi.

8.	Kurs	ishlari	(loyiha)	mavzulari	va	ularni
bajarish	buyicha	uslubiy	kursatmalar.	Muayyan	fanning	
o'quv	dasturi	buyicha	kurs	loyiha	(ishi)larini	bajarish tartibi aniq va
batafsil	yoritilgan	hamda	ushbu	fan	bo'yicha	talabalarda zarur amaliy
ko'nikmalar	hosil	qilishga	naltirilgan	ta'lim	muassasalarining	ilmiy
(uslubiy)	kengashi	tavsiyasi	asosida	nashr	etiladigan	kichik adadli
						material.

9. Elektron darslik. Elektron darslik - fanning o'quv hajmini to'liq qamragan va masofaviy o'qitish hamda mustaqil o'rganish uchun kompyuter texnologiyalariga asoslangan, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirishga mo'ljallangan bo'lib:

-o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;

-o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;

multimedia (ko'p axborotli) elementlari, ya'ni ma'lumot ikki-uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda; taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, ob'ektlarga nisbatan xarakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

10.	Elektron	ta'lim	resurslari.	Bularga	Fan	buyicha
yaratilgan	elektron		o'quv	qo'llanma,	elektron-kursatmalar,	
ma'lumotnomalar,	lugatlar,	virtual	stendlar,	multimediali	vositalar	va
						boshka elektron nashrlari kiradi.

Elektron o'kuv qo'llanma - fanning o'quv hajmini qisman yoki to'liq qamragan va axborotning adaptatsiya blokini o'z ichiga olgan bo'lib, masofaviy o'qitish va mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan o'quv manbai.

Elektron o'quv nashri - ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni ijodiy va faol egallashlarini ta'minlaydigan ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialga ega bo'lgan elektron nashr.

Elektron uslubiy qo'llanma - Elektron uslubiy ko'llanmada pedagogik tajriba mashg'ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron yoki unga ugirilgan shaklda yaratilgan ukuvchnlao ishlarini darelar buyicha rejalashtirilgan shaklida ko'rsatiladi.

II.2.Tabiiy geografik fanlarga oid glossariy namunalari.

Ablyasiya- erish

Anomaliya - me'yordan chetga chiqish.

Antitsedent daryolar – daralardan oqadigan daryolar.

Arid mintaq – Suv yuzasidan bo'ladigan bu'g'lanish yo'g'indan ko'p bo'lgan mintaq.

Anion –manfiy zaryadli ionlar

Arid iqlim- qur'g'oqchil iqlim.

Atmosfera –havo qobi'g'i.

Aerotent- suvni tozalash usuli.

Bazalt qatlam- suv ta'sirida yuvilmaydigan qatlam.

Bar- qumloq, sayozlik.

Batigrafik egri chiziq- ko'ldagi suv yuzasining chuqurlik bo'yicha o'zgarishini tasvirlaydigan egri chiziq.

Batometr- suvning loyqaligini o'lchaydigan asbob.

Bosimsiz- erkin.

Bental- suv havzasi tubi yuzasi.

Bentos- chuqur suv osti jonivorlari va o'simliklari.

Val- to'lqin xosil qilgan do'nglik.

Birlamchi suvlar-kislorod va vodoroddan xosil bo'lgan suv

Vadoz suvlar – suvning tabiatda aylanishida ishtirok etadigan Er qobi'g'i suvlari.

Gravitatsion suv- o'g'irlik kuchi ta'sirida tuproq-grunt dan ajraladigan suv.

Gigroskopik suv- quruq tuproq havodan ajraladigan suv.

Grunt- yer osti.

Gidrograf- suv sarfining vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi.

Don- loyqa o'lchagich.

Denudatsiya –emirilish.

Voklyuza- karst xududida kam suvli davrda ham qurib qolmaydigan suv manbalari.

To'lqin nuri- to'lqin frontiga tik chiziq.

Mavsumiy –vaqtinchalik.

Izobata- bir xil chuqurlikni tutashtiruvchi chiziq.

Izoterma- bir xil haroratdagi nuqtalarni tutashtiruvchi chiziq.

"Gidrologiya" -yunoncha soʻz boʻlib, "Gidro"-suv va "logos"-bilim yoki fan degan maʼnoni beradi.

Gidrometriya- suv obʼektlarining gidrologik reʼimi elementlari (suv sathi, suv sarfi, suvning tezligi, suv yuzasi nishabligi)ni oʻlchash, kuzatish uslublarini ishlab chiqish va ularni bevosita amalga oshirish ishlari bilan shuʻgʻullanadi.

Gidrografiya-maʼlum hududdagi suv obʼektlarining oʻziga xos xususiyatlarini joyning tabiiy geografik sharoiti bilan boʻgʻliq holda oʻrganib, ularga gidrologik va xalq qoʻjaligidagi ahamiyati nuqtai nazaridan yondoshgan holda yozma tavsif beradi.

Gidrologik hisoblashlar va Gidrologik prognozlar -muxandislik gidrologiyasi)-suv obʼektlarining turli gidrologik koʻrsatkichlarini hisoblash va prognoz qilish usullarini ishlab chiqish bilan shuʻgʻullanadi.

Gidrologik post- kuzatish joyi

Gidrol- buʻgʻ xolidagi suv

Gidrosfera- suv qobiʻgʻi

Godograf- suv tezligining chuqurlik boʻyicha oʻzgarish chizmasi.

Granulametrik- mexanik

Delta- daryoning tarmoqlangan mansabi

Denudatsiya- toʻgʻ jinslarining emirilishga olib keladigan jarayonlar majmui

Izobara-bir xil bosimli chiziq

Izobata- bir xil chuqurliklarni tutashtiruvchi chiziq

Izotaxa- bir xil tezliklarni tutashtiruvchi chiziq

Izoterma - bir xil haroratli chiziqlar

Irrigatsiya- ekin maydonlariga suv chiqarish va suʻgʻorish ishlari

Indikator havza- qoʻshni havzalardagi oqim tartibini oʻzida mujassamlashtirgan havza.

Emirilish-nurash

Kaloriya – issiqlik miqdorining oʻlchov birligi

Kation-musbat zaryadli ionlar

Koagulyasiya-tozalash

Kolmatatsiya- shimilishni kamaytirish

Konveksiya- suv, havo orqali issiqlik uzatilishi.

Qirʻgʻ oq morenalari- muzlikdan hosil bshlgan toʻgʻ jinslari.

Kondensatsiya- buʻgʻlanish

Korrelyasiya- boʻgʻliqlik

Filtratsiya- shimilish

Oqim hajmi - daryodan ma'lum vaqt (minut, soat, kun, oy, yil yoki ko'p yil) davomida oqib o'tadigan suv miqdori, m^3 yoki km^3 larda ifodalanadi. Hidrologik prognozlarda oylik, to'lsuv yoki vegetatsiya davridagi oqim hajmlari prognoz qilinadi.

Pardali suv- qattiq jism sirtidagi suv.

Reprezentativ meteorologik stansiyalar - gidrologik prognozlarning usuli yoki uslubini ishlab chiqishda havo harorati, atmosfera yo'g'inlari va boshqa ma'lumotlari asos qilib olinadigan meteorologik kuzatish punktlari.

Suv rejimi elementlari - suv sathi, suvning oqish tezligi, suv sarfi, suvning tiniqligi, minerallasuv darajasi va boshqalar.

Suv sarfi - daryo, soy yoki kanalning ko'ndalang qismidan vaqt birligi ichida oqib o'tadigan suv miqdori, m^3 'g's da ifodalanadi. Hidrologik prognozlarda daryolarning suv sarflari qisqa yoki uzoq muddatli prognoz qilinadi.

Suv aeratsiyasi- suvni kislorodga to'yinishi.

Statsionar- suv ob'ektlari (daryolar, ko'llar, muzliklar)ning gidrologik rejimi elementlari ko'p yillar davomida kunning ma'lum belgilangan soatlarida muntazam ravishda kuzatib boriladi.

Stvor-suv o'lchash moslamasi

Tajribalaboratoriya-suvning tabiiy va ximiyaviy xossalarini aniqlash, Gidrodinamik hodisalarni va boshqa xarakterlarni modellash sharoitida o'rganish imkonini beradi.

Uyurma- girdobli.

Litoral-ko'lining qir'g'oqqa yaqin qismi.

Meandra-egri bugri.

Nomogramma- hisoblash chizmasi.

Nazariy tahlil usuli kuzatish ma'lumotlaridan va boshqa turdagi axborotlardan ilmiy xulosalar chiqarishga asoslangan.

Nisbiy hatolik - gidrologik hodisaning prognoz qilingan qiymati bilan kuzatilgan qiymati orasidagi foizlarda ifodalangan farqi.

Yuvinil suvlar- magmadan adralgan kislorod va vadoroddan hosil bo'lib, birinchi marta tabiiy aylanishda ishtirok etadigan suvlar.

Ekspeditsiya- ma'lum hududdagi nisbatan kam o'rganilgan, ki umuman o'rganilmagan suv ob'ektlari, to'g'ridanto'g'ri dala sharoitida, umumiy tarzda yoyi aniq bir yo'nalishdagi maqsadni ko'zlab tadqiq etiladi.

II.3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik fanlarga oid glossariy namunalari

Avtarkiya-(yun. «avtarkea»-o`zi-o`ziga etarli) mamlakatning o`z-o`zini ta`minlash qoidasiga asoslangan, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalardan uzilib qolgan biqiq xo`jalik yuritish siyosati.

Aglomeratsiya, aholi punktlari aglomeratsiyasi-aholi punktlari, asosan shaharlar, shuningdek, qishloqlarning intensiv xo`jalik mehnat va madaniy-maishiy hamda rekratsion aloqalar bilan bo`g`lanib, yagona birlikni tashkil qilgan kompakt hududli guruhi.

Agrar islohotlar-qishloq xo`jaligidagi islohotlar, davlatning erga mulkchilik munosabatlari va erda xo`jalik yuritish usullarini o`zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlari majmui.

Agrosanoat integratsiyasi-qishloq xo`jaligi va sanoat tarmoqlarining, iqtisodiy, fan-texnika, texnologik va boshqa xo`jalik imkoniyatlarini birlashtirish (qo`shish) orqali ishlab chiqarish va mehnatning umumlashtirilishi.

Ajiotaj-(fr. «agiotage»-hovliqish, tartibsizlik) birja bozorlarida chayqovchilik maqsadlarida ataylab yaratiladigan jonsaraklik; qimmatbaho qo`g`ozlarning kursi va tovarlarning narxini sun`iy ravishda ko`tarish yoki tushirish.

Aylanma vositalar (mabla`g`lar)-korxonaning xo`jalik faoliyatini moliyalash uchun foydalaniladigan pul mabla`g`lari; asosiy vositalarni aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlaridan tashkil topadi.

Aktsiya-(fr. «action») farmoyish; ruxsatnoma, faoliyat, aktsiyador jamiyat chiqargan qimmatbaho qo`g`oz.

Aktsiyadorlik jamiyati-daromad topish maqsadida hissadorlik tamoyiliga binoan uyushgan sherikchilik jamiyati.

Aralash jamiyat -1) xususiy va davlat kapitallari ishtirokidagi korxona; 2) kapitali ikki yoki undan ortiq mamlakatning tadbirkorlariga (jismoniy yoki yuridik shaxslarga) yoki davlat muassasalariga tegishli bo`lgan korxona.

Aralash iqtisodiyot –hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti modellaridan biri. Bozor iqtisodiyotining rivojlangan va demokratlashib, insoniy tus olgan turi bo`lib, AqSH, Angliya va Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarga xos.

Aralash mulk–turli mulk shakllarining birlashuvi natijasida paydo bo`ladigan mulk.

Asosiy vositalar–ishlab chiqarishning moddiy sharoitlarini ta`minlaydigan vositalar (mehnat qurollari, bino, inshoot, qurilma va boshq.).

Asosiy kapital-kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalarini (mashina asbob-uskuna, ishlab chiqarish binolari va uskunalarini) o`z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o`z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o`tkazib boruvchi qismi.

Asosiy ishlab chiqarish, asosiy tarmoq-korxona ishlab chiqarish tuzilmasi va ixtisoslashuvining rejali yo`nalishini belgilaydigan tarmoq.

Asosiy fondlar, korxonalarining asosiy fondlari-ishlab chiqarishga uzoq muddat xizmat qiladigan, o`z natural buyumlarini o`zgartirmagan holda ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor qatnashadigan mehnat qurollari va vositalari.

Aholi daromadlari-barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko`rsatilgan bepul xizmatlar summasi; aholining milliy daromaddagi hissasi.

Aholi zichligi-muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat yoki biror hudud (viloyat, tuman) aholi sonini shu hudud er maydoniga (odatda 1km. ga) taqsimlash bilan hisoblab chiqariladi.

Aholi – ma`lum hududda yashaydigan kishilar guruhi tushuniladi. SHu boisdan ilmiy – geografik tadqiqotlarda aholi va aholi manzilgohlarini atrof muhit va xo`jalik bilan bevosita bo`g`liq holda tadqiq etishadi.

Aholi geografiyasi – aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidagi regional tafovutlarni va bu tafovutlarni vujudga keltiradigan omillarni, aholi va aholi manzilgohlarining hududiy tizimlarini hamda ularning rivojlanish qonuniyatlarini o`rganadi.

Antropologiya (grek tilidan – antropos – “inson”) inson organizmining evolyusiyasi va undagi jismoniy o`zgarishlarning kelib chiqish qonuniyatlari, shuningdek irqning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o`rganib, u aholi geografiyasi bilan birgalikda aholi mehnat faoliyati turmush sharoiti va madaniyatidagi hududiy xususiyatlarni o`rganadi.

Aglomeratsiya – aholi punktlarning bir-birlariga qo`shilib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi. Aglomeratsiyalarda aholi zich o`rmashgan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan sanoat korxonalari, ilmiy va o`quv muassasalari to`plangan bo`ladi

Aholi migratsiyasi-aholining yashash joyini o`zgartirishi bilan bo`g`liq ko`chishi.

Aholining milliy tarkibi-muayyan hudud yoki mamlakatda yashovchi aholining millatlar bo`yicha tarkibi.

**Aholining tabiiy o`sishi**-ma`lum davr ichida tug`ilganlar va o`lganlar soni o`rtasidagi farq.

Bank-kredit tizimi-markaziy bank, tijorat banklari, kredit uyushmalari.

Byudjet-davlat byudjeti, ya`ni davlatning daromadlari va harajatlari rejasi, uning amalga oshirilishi jarayoni nazarda tutilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)-er yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta`minlash, mamlakatlarning o`zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot, 1945 yilda tuzilgan.

Bozor infratuzilmasi-bozorda tovarlar va xizmatlarning erkin harakatini ta'minlaydigan muassasalar, tashkilotlar majmui.

Bozor islohotlari-davlatning bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, chora-tadbirlari tizimi, iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi.

Bozor iqtisodiyoti-tovar-pul munosabatlariga asoslangan, turli mulkchilikka hamda iqtisodiy erkinlikka tayangan va raqobat vositasida tartib solib turiluvchi demokratik iqtisodiyot.

Byudjet-(ing. «budget»-hamyon, mabla'g') belgilangan muddat (yil, kvartal) uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va harajatlarning yig'indisi.

Valyuta-(ital. «valuta», lot. «valere»-qadrlanmoq, qiymat) 1) mamlakatning pul birligi va uning turi(oltin, kumush, qo'g'oz); 2) chet mamlakatlarning xalqaro muomalada qo'llanuvchi pullari, shuningdek shu mamlakatlarning pul birligida ifodalangan va xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan kredit va to'lov hujjatlari (veksellar, cheklar, banknotlar va boshq.).

Geografik muhit-tabiatning insoniyat jamiyati mavjud bo'lgan, odamning butun hayoti va ishlab chiqarish faoliyati ro'y beradigan qismi.

Geosiyosat, geografik siyosat-siyosatshunoslikdagi nazariya. Geosiyosat termini muayyan bir mamlakat o'rnini, tabiiy boyliklari iqlimi va boshqa geografik omillarning davlat tashqi siyosatiga (geografik siyosiy strategiyasi va h.k.) muayyan ta'sirni ifodalash uchun ishlatiladi. Geosiyosat tushunchasini birinchi bor R.C.Hellen (SHvesiya) ilmiy muomalaga kiritgan.

Geoekologiya-ekologiyani yuqori bosqichdagi ekosistemalarni, shu jumladan biosferani o'rganuvchi fan.

Global moliyaviy inqiroz-butun jahonni qamrab olgan moliyaviy inqiroz, jahon moliya tizimining izdan chiqishi.

Davlat-mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uni tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma.

Davlat byudjeti-davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromادلari va harajatlari majmui.

Davlat zayomlari-byudjetga pul to'plash maqsadida davlat tomonidan sotish uchun chiqariladigan, davlatning qarzdorligini tasdiqlovchi qimmatli qo'g'oz.

Davlat monopoliyasi-jamiyatda muayyan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish ayrim tovarlarga ishlab chiqarish yoki boshqa tovarlar savdosi bo'yicha davlatning yagona egalik qilish huquqi.

Davlat mulkini boshqarish-shaxslar va davlat idoralari tomonidan qonunchilikda belgilangan huquq va vakolatlar doirasida davlat mulki egasi (egalik, foydalanish, tasarruf etish) vazifalarini bajarish.

Davlat suv kadastri-mamlakatning suv resurslari to'g'risida tartiblashtirilgan ma'lumotlar majmui.

Davlat chegarasi-davlatning quruqlik va suvdagi doirasini belgilaydigan chiziq.

Daryo transporti-transportning asosiy turlaridan biri; tabiiy (daryo, ko'l) va sun'iy (kanal suv ombori va boshq.) suv havzalari orqali yuk va yo'lovchi tashiydi.

Demokratiya chizi'g'i-1) harbiy ishda urushuvchi tomonlarni vaqtincha yarash vaqtida ajratib turuvchi chiziq (o't ochish to'xtatilgan chiziq); 2) ma'g'lub davlat hududini zonalarga bo'luvchi chiziq; 3) qo'shni davlatlar o'rtasida davolashilayotgan hududda doimiy chegara aniqlangunga qadar aholi statistikasi fani tarmo'g'i, aholi yoki uning alohida guruhlarining soni, tarkibi, joylashishi va takror barpo bo'lishi haqida statistik uslub asosida ma'lumotlar to'plash, uni qayta ishlash, tahlil qilishni o'rganadi.

Demping-(ingl. «dumping»-tashlash, tashlama) tovarlarning tashqi va ichki bozorda sun'iy arzonlashtirilgan, o'rtacha chakana narxlardan sotish, tashqi bozorni egallash uchun raqobat kurashi vositalaridan biri.

Deportatsiya-(lot. «deportatio»-badar'g'a, surgun qilish)-jinoiy yoki ma'muriy jazo chorasi sifatida davlatdan majburiy chiqarib yuborish, haydash.

Depressiya-(lotincha «depressio»-bosilish, susayish) iqtisodiyotda tanglik natijasida va undan keyin boshlanadigan tur'g'unlik davri.

Depozit-pul mabla'g'larining banklarga yoki boshqa kredit muassasalariga vaqtinchalik joylashtirilishi.

Divesifikatsiya-iqtisodiy yoki ishlab chiqarish faoliyatining bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishlarda olib borilishi. Bu bozorga tezroq moslashishga imkon beradi.

Evropa Ittifoqi (EI)-o'zida xalqaro tashkilot va federativ davlat xususiyatlarini mujassamlashtirgan davlatlararo uyushma.

Er kadastri, davlat er kadastri-yagona davlat kadastrlari tizimining asosiy tarkibiy qismi, er resursining tabiiy xo'jalik huquqiy rejimi toifalari sifat xususiyatlari va qimmati, er uchastkalari o'zni, chegarasi va maydoni, ularning er egalari, erdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdor o'rtasidagi taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlar hamda hujjatlar majmui.

Yollanma mehnat-yollanma xodimlar mehnati. YOllanma mehnat bozor iqtisodiyotida amal qiladigan mehnat bozorida oldi sotdi qilinadigan asosiy tovar hisoblanadi.

Jaxon banki-xalqaro moliya muassasasi. Tarkibiga BMTning ixtisoslashgan muassasasi maqomiga ega bo'lgan 3 mustaqil xalqaro moliya instituti (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki,

Xalqaro moliya korporatsiyasi hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi) kiradi. Ba'zi adabiyotlarda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki norasmiy xolda jahon banki deb ham yuritiladi.

Jahon bozori-xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o'zaro bo'g'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar pul munosabatlari tizimi.

Jahon xo'jaligi-turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotining bozor munosabatlari zahirida bir-birini taqozo etgani holda umumjahon yaxlitligini tashkil etishi; jahondagi o'zaro aloqador milliy xo'jaliklar va xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmui.

Jahon xo'jaligi geografiyasi-iqtisodiy va ijtimoiy geografiya sohasi, xalqaro geografik mehnat taqsimotining shakllanishi, mamlakatlarning ixtisoslashuvi, xar xil ijtimoiy-siyosiy vaziyat hukmron bo'lgan sharoitda dunyodagi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Xalqaro geografik mehnat taqsimoti jahon xo'jaligini harakatlantiruvchi kuchi va negizidir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish-jamiyat yoki milliy iqtisodiyot miqyosida ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun kerak bo'ladigan ne'matlarni yaratishga yunaltilgan iqtisodiy faoliyatlar majmui. Bu faoliyat natijasida yalpi milliy mahsulot, shu jumladan yalpi ichki mahsulot va milliy daromad ishlab chiqariladi.

Ijtimoiy tuzum-jamiyatning muayyan taraqqiyot bosqichiga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi. Ijtimoiy tuzum jamiyatda qanday ijtimoiy munosabatlar amal qilishini aks ettiradi.

Iqtisodiyotning real sektori-sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish.

Import-chet eldan tovarlar va xizmatlarning sotib olinishi.

Immigrantlar-(lot.«immigrans»-ko'chib keluvchi) bir davlatdan boshqa bir davlat xududiga doimiy yoki uzoq vaqt istiqomat qilish uchun ko'chib kelgan fuqarolar.

Investitsiya-(lot. «investio»-o'rash) iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish).

Infratuzilma-(lot. «infra»-ostida) ishlab chiqarish va tovar muomalasi, shuningdek, inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan me'yoriy, sharoitni ta'minlashga xizmat qiluvchi turli-tuman yordamchi, xizmat ko'rsatuvchi sohalar (tashkilot, korxona va muassalar), majmui; nomoddiy ishlab chiqarish sektori, infratuzilma xizmatlari moddiy shaklga ega bo'lmagan tovarlar bo'lib, ular hayotiy ehtiyojlarini qondiradi.

Innovatsiya-iqtisodiyot uchun yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish yoki mavjud mahsulotdan yangicha foydalanish yoki mahsulotni yangi usulda ishlab chiqarish.

Innovatsion texnologiya-mamlakatda ilgari qoʻllanmagan yoki prinsipial yangi texnologiya.

Integratsiyalashuv-milliy iqtisodiyotlarning yagona jahon xoʻjaligiga tobora yaqinroq birlashuvi jarayoni.

Ichki bozor-muayyan mamlakat doirasida tovarlar va xizmatlar ayirboshlanadigan bozor.

Ishchi kuchi, mehnat qilish qobiliyati-insondagi tirikchilik neʼmatlari ishlab chiqarishda foydalaniladigan jismoniy va maʼnaviy qobiliyatlar majmui.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish-korxona, kompaniya yoki ularning biror tarkibiy qismini asosiy faoliyatini tor doiradagi mahsulot, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yoʻnaltirish.

Ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi-bir necha bir-biriga yaqin, turdosh mahsulot turlarini ishlab chiqarishning yirik korxonalarda, katta boʻlmagan mintaqa doirasida toʻplanishi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar, unum beruvchi kuchlar-ijtimoiy ishlab chiqarishda band boʻlgan ishlab chiqarish vositalari va kishilar majmui.

Ishlov beruvchi sanoat-sanoat va qishloq xoʻjaligi hom ashyosiga ishlov beruvchi yoki uni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari majmui.

Ishsizlik-bir qism iqtisodiy faol aholining oʻziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zahirasiga aylanishi.

Iqtisodiy integratsiya-turli korxona va tarmoqlarning, shuningdek, mamlakatlarning ishlab chiqarish sohasida bir-biriga yaqinlashuvi, ular oʻrtasida uzviy iqtisodiy aloqalar oʻrnatilishi mamlakatlararo yagona umumiy xoʻjalikning shakllanish jarayoni.

Iqtisodiy rayon, iqtisodiy-geografik rayon-tabiiy va iqtisodiy sharoitlari bir xil va xalq xoʻjaligi tarixan tarkib topgan, ixtisoslashgan ishlab chiqarishga ega boʻlgan hudud.

Iqtisodiy taraqqiyot modeli-(fr«modele»-oʻlchov, namuna) mamlakat iqtisodiyotining tashkil etish va rivojlantirishning strategiyasi, maqsadlari, umumiy tamoyillari ifodalangan nazariy qarashlar majmui.

Iqtisodiy qonunlar-kishilik jamiyatining hamma bosqichlarda moddiy neʼmatlarni ishlab chiqarish taqsimlash, ayirboshlash va isteʼmol munosabatlarini boshqarib turuvchi obektiv qonunlar.

Kommunikatsiya-(lot «communisatio»-umumlashtiraman, boʻgʻlayman) kibernetikada informatsiya (axborot)larni almashish jarayoni tushuniladi.

Kapitallashuv-bank yoki boshqa tijorat tuzilmasi oʻz kapitalining oʻsib borishi jarayoni.

Kompaniyalar aksiyalari baholari indeksleri-rivojlangan mamlakatlarda eng yirik kompaniyalar muayyan doirasi aksiyalari bozor baholari o'zgarishlarini aks ettiruvchi yig'ma ko'rsatkichlar. Masalan, AqSH da Dou-Jons indeksi.

Korporativ manfaat-aksiyadorlar manfaatlari. Odatda aksiyadorlar dividendlarni ko'proq olishni hohlaydilar, bu esa jam'gariladigan foydani kamaytiradi.

Kredit bozori-kredit resurslarining banklar o'rtasida sotilishi va sotib olinishi.

Likvidlik-korxona yoki bank pul mablag'larining puldagi majburiyatlarni bajarish uchun etarlicligi darajasi.

Mamlakat-siyosiy-geografik termin bo'lib, muayyan chegaralarga va davlat suverenitetiga ega bo'lgan yoki boshqa bir davlat hukmronligi ostida bo'lgan xudud (mustamlaka, boshqaruv ostidagi hudud)ni anglatadi.

Markaziy bank-mamlakatning pul belgilarini, emissiya qilish pul bosib chiqarish va tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish huquqi berilgan bosh davlat banki.

Mahsulot-iqtisodiy faoliyatning ashyolar va xizmatlarda mujassam etilgan natijasi.

Mehnat-insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati eng avvalo tabiat predmetlarini o'zgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi.

Mehnat birjasi-ishsizlarni, ish joyini o'zgartirishni istovchi shaxslarni ishga joylashtirish bilan shug'ullanadigan maxsus davlat muassasasi. Mexnat bozorining tashkil etilgan va tartiblanib turadigan shakli.

Mehnat bozori-ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor.

Mehnat resurslari-mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi.

Mehnat taqsimoti-mehnat turlarining bir-biridan ajralib mustaqil ahamiyat kasb etishi; mehnat turlarining ixtisoslashuvi.

Mehnatni tashkil etish-nazariya va amaliyotga asoslangan holda korxonada ish jarayoni unsurlarini uyushtirish tartibi va tamoyillari.

Millat-uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, aniq xududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli.

Milliy bozor-muayyan mamlakatning davlat chegaralari doirasi bilan cheklangan tavar muomalasi soxasi.

Milliy valyuta-muayyan davlat (davlat markaziy banki) tomonidan chiqariladigan valyuta.

Milliy daromad-1) mamlakatdagi milliy iqtisodiyotning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari tomonidan muayyan bir davrda (odatda bir yilda) moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida yaratilgan sof mahsulot; yalpi mahsulot hajmidan uni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan mehnat vositalari va buyumlarni qoplaydigan mahsulot miqdorini-qoplash fondini chegirib tashlangandan keyin qoladigan mahsulot; 2) 'g'arb mamlakatlari iqtisodchilari talqinida mamlakatdagi mehnat, kapital va er egalarning bir yilda olgan ish haqi, foyda, foiz va renta kabi daromadlar yig'indisi.

Milliy hisoblar tizimi-mamlakat iqtisodiy rivojlanishining xalqaro statistika amaliyotida qabul qilingan umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar tizimi.

Milliy iqtisodiyot-mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi va suvereniteti bilan bog'liq bo'lib, yagona siyosiy, hududiy-tabiiy, tarixiy, milliy iqtisodiy tizimining umumiy qonun va qonuniyatlarini ifodalovchi ijtimoiy- iqtisodiy hayotning barcha sohalari, xilma-xil mulkchilik shakllaridan iborat ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tizimlari, boshqaruv va strategik (istiqbolli) rivojlanish jarayonlari majmuasidir.

Moddiy resurslar-iqtisodiyot taraqqiyoti va ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan moddiy ashyoviy ne'matlar yig'indisi, moddiy-ashyoviy shakldagi iqtisodiy resurslar.

Moddiy farovonlik-jamiyat, ayrim kishilar va ijtimoiy guruxlarning moddiy ne'matlar bilan ta'minlanganligi; kishilar moddiy ehtiyojlarini qondirilishi darajasi.

Moliya bozori-oldi-sotdi obekti pul (pulga tenglashtirilgan qo'g'ozlar) bo'lgan bozor.

Moliya guruhlar-bir necha oila yoki guruhlarning ittifoqi. Iqtisodiy birlashish negizida tashkil topgan yirik moliya sanoat birlashmalari, sanoat, transport, bank, savdo, su'g'urta, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarning yirik uyushmasi.

Moliya yili-davlat byudjeti amal qiladigan yoki moliya hisobotlari muddati xisoblanadigan 12 oydan iborat davr.

Moliya resurslari-iqtisodiy sub'ekt ixtiyorida, uni tasarrufida bo'lgan jami pul mablag'lari, moliyaviy aktivlari majmui.

Moliyaviy investitsiya-pul mablag'larining moliya bozori orqali daromad olish uchun joylashtirilishi.

Modernizatsiya-zamonaviylashtirish.

Moliya tizimi-iqtisodiyotdagi pul oqimlari harakati amalga oshiriladigan tizim: davlat byudjeti, banklar, su'g'urta kompaniyalari, investitsiya institutlari va boshqalar.

Milliy kredit institutlari-mamlakatdagi banklar, kredit uyushmalari.

Narx, baho-tovar qiymatining puldagi shakli; bozor iqtisodiyotida amal qiluvchi iqtisodiy dastak.

Narxlar indeksi-iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar baholari o'zgarishlarini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

Nodavlat sektori-milliy iqtisodiyotning davlat tasarrufida bo'lmagan sohalari. Nodavlat sektori 'g'arb mamlakatlarida privat, ya'ni xususiy sektor deb yuritiladi.

Oltin-valyuta zahirasi-markaziy bankda jamlangan oltin va valyuta resurslari.

Retsessiya-lotincha ortga chekinish, ishlab chiqarish o'sishining to'xtab qolishini bildiradi.

Rejalashtirish-milliy iqtisodiyotning turli darajalarida (mikrodarajadagi korxonalar va ularning ayrim bo'linmalari, shuningdek, korxonalar guruhlar, tarmoqlar, sektorlar va mintaqalar miqyosida; makrodarajada-mamlakatning butun iqtisodiyoti miqyosida) ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va boshqarish shakllari. Joriy, qisqa muddatli (oylik, choraklik, yillik), o'rta muddatli (5 yillik) va istiqboldagi uzoq muddatli (10-15 yillik) rejalashtirishga bo'linadi.

Real investitsiya-moddiy mabla'g'larning ishlab chiqarishni yangilash va kengaytirish maqsadlariga yo'naltirilishi, shu jumladan yangi ishlab chiqarishning barpo etilishi.

Spekulyasiya-qisqa muddatli davrda yuqori foyda chiqarib olish maqsadlaridagi xatarli savdo operatsiyalari.

Sammit-uchrashuv, ishtirokchilari o'z ixtiyori bilan to'planadigan yig'in.

Tabiat-odamning paydo bo'lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq.

Tabiiy resurslar-kishilar moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida jamiyat tomonidan foydalaniladigan yoki foydalanish mumkin bo'lgan tabiatning bir qismidir.

Tabiiy monopoliya-bozorda muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo'lgan talabni qondirishda raqobatli sharoitlarni yaratish texnologik xususiyatlarga ko'ra mumkin bo'lmaydigan yoki iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lmaydigan yoki iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lmaydigan holat.

Tashqi savdo-bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boriladigan savdosi. Mamlakatdan tovarlar chiqarish va (eksport) va mamlakatga tovarlar kiritish (import)dan tashkil topadi.

Ulgurji bozor-tovar iste'molchilariga yoki ularning chakana sotadigan xaridorlarga tovarlar yirik to'p (partiya)lari bilan ko'tarasiga sotiladigan bozor.

Fermer-qishloq xo'jaligi tadbirkori, fermer xo'jaligi egasi. O'zbekistonda mavjud qonun hujjatlariga ko'ra, 18 yoshga to'lgan qishloq xo'jaligida tegishli bilim, malaka va ish tajribasiga ega bo'lgan hamda muomalaga layoqatli fuqaro fermer bo'lishi mumkin.

Fermer xo'jaligi-xususiy yoki uzoq muddatga ijaraga olingan erda qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish bilan shu'g'ullanadigan xo'jalik.

Fond bozori, qimmatli qo'g'ozlar bozori-moliya bozorining qimmatli qo'g'ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan shu'g'ullanadigan sohasi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF)-(ingl. IMF, International Monetary Fund) BM'Tning ixtisoslashgan muassasasi, a'zo mamlakatlarning valyuta hamkorligini amalga oshiradigan xalqaro tashkilot.

Xalqaro mehnat taqsimoti-ayrim mamlakatlarning muayyan mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va mahsulotlarni ayirboshlashi.

Xususiy mulk-ayrim kishilar yoki xonadonlar ixtiyoridagi mulk, bozor iqtisodiyotidagi xilma-xil mulklar orasida etakchi mulk shakli.

Xususiy sektor-iqtisodiyotning xususiy mulkchilik va xo'jalik yuritishning erkin bozor usullariga, iqtisodiy alohidalashuviga asoslangan sohasi.

Shahar aholisi-asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo'lgan yirik aholi manzilgohi.

Shok terapiyasi-bozor islohotlarini amalga oshirishda ba'zi mamlakatlarda qo'llangan yo'ning nomi. Islohotlar qisqa muddatda o'tkazilgan va aholini ijtimoiy himoyalashga juda kam e'tibor qaratilgan. Ko'pchilik hollarda salbiy natijalarga olib keldi.

Eksport-(ingl. «export», lot.«exporto»)-olib chiqaman, chetga chiqaraman) tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qo'g'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

Endogen omillar- organizmning ichki rivojlanishi, uning shakllanishi va qarishi, insonning yashash faoliyati qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladigan omillardir

Ekzogen omillar- odamlarda tashqi ta'sir bilan bo'g'liq paydo bo'ladigan o'limlar bo'lib bu omillar oqibatid aholining turli yoshdagi kishilari turli vaqtda turli joyda vafot etadilar.

Erkin bozor-narxlar biron-bir tashqi omillar ta'siriga bo'g'liq bo'lmagan holda faqat talab va taklifga ko'ra shakllanadigan bozor.

Erkin iqtisodiy zonalar-davlatlararo kelishuviga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shu'g'ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlar.

Ehtiyojlar-organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan narsalarga talab, muhtojlik. Nazariy va amaliy iqtisodiyotning fundamental tushunchalaridan biri.

Yalpi ichki mahsulot-(YAIM) mamlakat iqtisodiy faoliyatining muayyan davr (oy, chorak, yil) davomidagi umumiy natijalarini tavsiflaydigan ko'rsatkich. Milliy statistikada asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida YAIM yoki yalpi milliy mahsulot YAMM hatto yalpi milliy daromad (YAMD) ham qabul qilinishi mumkin. Masalan, AqSHda YAponiyada YAIM emas,

balki YAMM asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ammo BMT ning milliy xisoblar tizimida YAIM birlamchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Yalpi milliy mahsulot (daromad) (YAMM yoki YAMD)-mamlakatning ma'lum muddat (odatda, oy, kvartal, yil) ichida umumiy iqtisodiy faoliyatni tavsiflovchi yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri.

Yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot-ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari.

Qimmatbaho qo'gozlar-korxona kapitaliga ulush qo'shganlik yoki qarzga mabla'g' berilganligini tasdiqlovchi, shunga mutanosib muayyan huquqlar beruvchi rasmiy maqomga ega qo'g'ozlar.

Qimmatli qo'gozlar bozori-qimmatli qo'gozlarni sotish va sotib olish bo'yicha munosabatlar va bu munosabatlar amalga oshiriladigan tuzilmalar, masalan fond birjasi.

Emigratsiya- kishilarning doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o'z vatanidan boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishi. Emigratsiyada qatnashgan aholi emigrantlar deb ataladi.

Immigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun biron bir mamlakatga boshqa davlatlardan ko'chib kelishi. Imigratsiyada qatnashgan aholi "immigrantlar" deyiladi.

Reemigratsiya- kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o'z vatnidan boshqa mamlakatga ko'chib ketib, muayyan muddatdan so'ng yana kaytib ko'chib kelishidir. Reemigratsiyada qatnashgan kishilar "reemigrantlar" deyildi.

Doimiy migratsiya- aholining uzoq muddatga (bir yildan oshiq) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir.

Mavsumiy migratsiya- aholining ma'lum bir vaqtga (mavsumga) bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yana qaytishidir.

Tebranma migratsiya- aholining bir joydan ikkinchi bir joyga har kuni yoki har haftada borib qaytishi

Progressiv- yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida bolalar (0-14 yoshdagi) salmo'g'i qariyalarga (65 yosh va undan yuqori) qaraganda yuqori bo'lgan hududlarda kuzatilib ularning aholisi muntazam ko'payib boradi. Bu yosh tarkibiga Afrika va Osiyo davlatlarini kiritisa bo'ladi. Dunyo bo'yicha 15 yoshdan kichiklar jami aholining 30 foizini (2003 yil) tashkil qilsa, Afrikada 42 foizni, Osiyoda 30 foiz, Evropada 17 foizga teng. Bizning respublikamiz aholisi yosh tarkibida aynan shu yoshdagilar dunyo ko'rsatkichidan baland (38 foiz) ligi tilan tafsiflanadi.

Statsionar- yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida qariyalar salmo'g'i yoshlar bilan tengdir. Statsionar yosh tarkibida aholi soni bir xil miqdorda turadi. Aholining tez kamayishi yoki kamayishi kuzatilmaydi.

Regressiv- yosh tarkibida aholi umumiy sonida qariyalar salmo'g'i bolalarga qaraganda yuqori bo'ladi. Bunday holda esa aholi soni asta-sekin kamayib boradi va "depopulyasiya" holati yuz beradi. Aholi "qarib" borishi kuzatiladi.

Urbanizatsiya – (lotincha urbanus – shahar) – shaharlashish, ya'ni shaharlarning o'sishi va ko'payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko'payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo'ladi

Nikoh - bu erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning, ularning bir-biriga va o'z bolalariga nisbatan huquqlari va majburiyatlarining jamiyat tomonidan qayd etiladigan va boshqariladigan shaklidir.

Monogamiya yoki monogam nikoh- bu bir erkakning bir ayol bilan nikohidir, poligamiya yoki poligam nikoh- bu bir erkakning bir necha ayol bilan nikohidir (ko'pxotinlilik), yoki bir ayolning bir necha erkak bilan nikohidir (ko'perlilik).

Poliandriya yoki ko'perlilik nikoh shakli juda kam uchraydi; Hindiston va Tibetning ba'zi xalqlaridagina bor, u ham bo'lsa bitta ayolning bir nechta aka-ukalar bilan nikohda bo'lishi shaklidan iborat.

Nikoh yoshi –bu qonun yoki odat nikohga kirishga ruxsat beradigan eng kichik yoshidir.

Nikoh strukturasi –bu aholining nikoh holatlari (statuslari) bo'yicha taqsimlanishidir. Nikoh strukturasi aholini ro'yhatga olish yoki mikro ro'yhatga olish ma'lumotlari bo'yicha belgilanadi.


Oila – insonlarning tabiiy, biologik, nikoh-qon qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ia'naviy munosabatlarda asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik orqali bo'g'langan ijtimoiy guruhidir.

Jins – jinsiy ko'payishni ta'minlaydigan, organizmning genetik, fiziologik va morfologik belgilar majmuidir


Jinsiy tarkib – aholining erkaklar va ayollarga bo'linishidir.

Yosh – inson tu'g'ilganidan hayotining ma'lum nuqtasigacha bo'lgan davr.

Yosh akkumulyasiyasi – ba'zi yosh guruhlaridagi aholi sonini o'zidan oldingi yosh guruhidagi aholi sonidan oshib ketishi.



3-rasm. O`UM dagi glossariy tituli



HULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, geografiya fani bo'yich glossariy tuzishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. Terminlar ilmiy va etimologik jihatdan to'g'ri bo'lishi kerak. Bunga fanning nomini misol qilib keltirish mumkin; geografiya deb atalgani ma'qulmi, jo'g'rofiya deyilganimi? Geografiya termini asli yunoncha bo'lib, "ge" - yer, "grafo" - tasvirlayman so'zlaridan iborat. Jo'g'rofiya bizga ingliz va turklar orqali kirib kelgan bo'lib, geografiyaning buzilgan shaklidir. Ge – yer so'zi bilan boshlanadigan bir qancha fanlar bor; geografiya, geologiya, geomorfologiya, geofizika, geotektonika va boshqalar. Hammasi o'zgarmay qolgan. Faqat geografiyani o'zgartirsak ham ilmiy, ham etimologik xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Chunki jo'g'rofiya deganda asl ma'nosi o'zgarib ketadi, bema'ni so'zga aylanib qoladi.

2. Terminlar ko'pchilikka tushunarli, aytishga oson, ixcham, tugal ma'noli bo'lishi kerak. Keyingi vaqtda taklif qilingan muvoziy, mador, bahr, jo'g'rofiyun kabi terminlar arabchadan kirib kelgan bo'lib, hozirgi vaqtda muomaladan chiqib ketgan, ularga ko'pchilik tushunmaydi. Binobarin, ularni qo'llanish maqsadga muvofiq emas. Ular o'rniga parallel, tropik, dengiz (okean), geograf terminlari paydo bo'lgan, hamma tushunadi.

3. O'zbek tili normalariga mos bo'lishi kerak.

4. Terminlar lug'at boyligi, qotib qolgan emas. Eskirgan terminlar muomaladan chiqib ketib, yangilanishi, yangi terminlar kirib kelishi mumkin. Masalan: xattiystvo, mador, qarat, bahr, ummon o'rniga ekvator, tropik, materik, dengiz, okean deb ataladigan bo'lgan.

Glossariy tuzishda terminlarning bir qancha manbalariga murojlat qilinadi:

1. O'zbek abadiy tilining so'z zahirasi, ya'ni lug'atlar, badiiy va ilmiy adabiyotlar. Bunday adabiyotlarda mavjud bo'lgan terminlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

a) Sof o'zbek (turkiy) terminlari. Masalan: jar, bulut, yoz, yomg'ir, kechik, kent, qo'rg'on, soz, gilmoya va boshqalar.

b) O'zbek tili zahirasi kirib, o'zlashib ketgan boshqa xalqlar terminlari: manba, mansab, chashma, sohil, daryo va boshqalar.

2. Shevalar tili so'z zahirasi. Shevalar tili so'z zahirasi ilmiy adabiyotga ko'pgina terminlar kirib, o'zlashib ketgan. Masalan, qayir, adoq (odoq), gaza, cho'qalak va b. Xorazmda sug'orma dehqonchilik juda qadimdan rivojlangan. Shuning uchun u yerda sug'orma dehqonchilikka oid terminlar ko'p: yop, arna, ariq, zayk, xariq, solma, yorma. Bularni o'zbek tili muomalasiga asta - sekin kiritish mumkin.

3. Tarjima qilish yo'li bilan ham yangi terminlar paydo bo'ladi. Chunonchi, qalashma muz, qirg'oq bo'yi, daryo boshi, quyar joyi, suv sarfi, oqim, qora sovuq kabi terminlar tarjima yo'li bilan muomalaga kiritilgan.

4. Har bir xalqning lug'at boyligi boshqa xalqlardan kirib kelgan terminlar hisobiga boyib boradi. Shu jumladan, geografik terminlar ham kirib keladi. Masalan: sunami, garmsel, chashma, sohil, erg, hamada, siklon, antisiklon va b. Chet ellar bilan, turli xalqlar bilan aloqalarning ko'payishi turli atama, termin va tushunchalarning kirib kelishiga sharoit yaratadi. Lekin bunda biz o'zimizda yo'q, tarjima qilib bo'lmaydigan terminlarni olishimiz kerak. O'zimizda bo'la turib yoki tarjima qilsa bo'ladigan terminlarni chetdan olmaslik zarur.

Ilm - fan, texnika, ishlab chiqarish o'sgan sari yangi atama va terminlar ham paydo bo'lib va eskirganlari til muomalasidan chiqib keta beradi.

Demak, geografiya fanidagi glossariylarni shartli ravishda ilmiy, xalq (mahalliy), baynalmilal, toponimik va tarjima terminlarga bo'lish mumkin. Milliy terminlar biror millatning adabiy tilida va ilmiy adabiyotlarida barqaror o'rin olgan hamda mazkur millat vakillarining ko'pchiligi tushunadigan terminlardir. Bularga tog', tekislik, dara, ko'l, soy, dara, vodiy, jar, cho'qqi, g'or, sel, bulut, yomg'ir, qor, ko'chki, dovon va boshqalar misol bo'la oladi. Mahalliy terminlar ma'lum hududda, biror shevada qo'llaniladigan terminlar bo'lib, ularni boshqa shevasidagilar, boshqa hududdagilar tushunmasligi mumkin. Masalan, Xorazm shevasidagi yop, arna, zayk, xariq, solma, yorma terminlari, Qashqadaryo va Surhondaryo viloyatlari tog'li yerlarda gaza, adoq, xovar kabi terminlar uchraydi. Baynalmilal terminlar boshqa xalqlar tilidan kirgan bo'lib,

ko'pchilik xalqlarda bir xil qo'llaniladi. Bunga fan nomi geografiyani, lyoss, geyzer, karst, delta, artezian suv, siklon, antisiklon, fyon, kondensatsiya yadrosi, kristall va boshqalar misol bo'ladi. Tarjima terminlarga suv sarfi, daryo boshi, quyar joyi, qirg'oq bo'yi, suvayirg'ich, havza kabi terminlarni misol keltirish mumkin.

Ba'zan atama bilan termin so'zlarini chalkashtirib yuborishadi. Aslida atama narsa – hodisa, belgi va harakat kabilarning nomi, atovchi so'z, ya'ni umumiy nomdir. Atama termini ham, geografik nomni ham o'z ichiga oladi. Geografiyada atamalar ikki tur otlarga bo'linadi; termin va geografik nom. Termin lotincha so'z bo'lib, fan, texnika, kasb - hunarning biror sohasiga, shu jumladan geografiyaga ham xos bo'lgan muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'zlar birikmasidan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T. 1997 yil.
2. Abdullaeva K. Yangi pedagogik texnologiyalar. «Boshl. ta'lim», J. № 4, 1999 yil, 8-9 betlar.
3. Asanov G.R. Sotsial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug'ati. -T., 1990.
4. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma T. TESIS, 2001 yil.-59 bet.
5. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining izohli lug'ati. T., "O'qituvchi", 1977.
6. Ziyomuxammedov B, Abdullaeva SH. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. «Ma'naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. T. «Abu Ali Ibn Sino» 2001 yil.
7. Yo'ldoshev J.G. Yangi pedagogik texnologiyalar (yo'nalishlari, muammolari, echimlari) – «Boshl. ta'lim», 1999 yil, № 6, 2-5 betlar.
8. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalari. «Moliya». Toshkent 2003 yil.
10. Termin tanlash mezonlari. T., "Fan", 1996.
11. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T. «FAN», 2000 yil.
12. Enazarov T., Nazarov K. Joy nomlarini yig'ish so'roqligi. T., 1995, 32 b.
13. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 3-jild, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2002
14. O'zbekiston Respublikasida kadrlarni tayyorlash milliy dasturi. T. 1997 yil.
15. Qorayev S. Toshknet toponimlari. T., "Fan", 1991.
16. Qorayev S, P.G'ulomov. Geografik terminlar va tushunchalar lug'ati.T., 1979.
17. G'ulomov P. Geografiyadan qisqacha ruscha - o'zbekcha atamalar va tushunchalar lug'ati. T., "Universitet", 1993.
18. G'ulomov P. Jo'g'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati. T., "O'qituvchi", 1994.
19. G'ulomov P.N., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. -T.: Universitet, 2005.
20. Hasanov H. Geografik nomlar imlosi. T., "Fan", 1962.
21. Hasanov H. Geografik terminlar lug'ati. T., "Fan", 1964.
22. Hasanov H. Yer tili. T., "O'qituvchi", 1977.
23. Hasanov H. Geografik nomlar siri. T., "O'qituvchi", 1985.

